

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

Boshlang'ich va maktabgacha ta'lim metodikasi
kafedrası

Qo'lyozma huquqida

Jumaboyeva Zarnigor

Mavzu: Boshlang'ich sinflarda undalma ustida
ishlash

5111700 – Boshlang'ich ta'lim, sport va tarbiyaviy ish
ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr akademik darajasini olish
uchun yozilgan

**bitiruv malakaviy
ishi**

Ish rahbari: G. Teshaboyeva

Andijon – 2018

M u n d a r i j a:

Kirish	3
------------------	---

I bob. Boshlang‘ich sinf ona tili ta‘limida sintaktik mavzular – nutq o‘stirishning asosi	7
--	----------

1-§. Inson nutqi – inson tafakkurining mahsuli	9
2-§. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilar nutqi ustida ishlashning metodik asoslari	13

II bob. Boshlang‘ich sinflarda “Undalma” mavzusi ustida ishlash

1-§. Boshlang‘ich sinflarda sintaktik tushunchalar ustida ishlash mazmuni	19
2-§. Boshlang‘ich sinflarda undalma ustida ishlashning nazariy-metodik asoslari	21
3-§. Boshlang‘ich sinflarda undalma ustida ishlash mazmuni	23
4-§. Boshlang‘ich sinflarda “Undalma” mavzusi ustida ishlash metodikasi	28
5-§. Boshlang‘ich sinflarda “Undalma” mavzusi ustida ishlashda interfaol usullardan foydalanish	39

Xulosa.	51
-----------------	----

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.	53
---	----

K i r i s h

Avlodlarni har tomonlama sogʻlom va barkamol inson sifatida tarbiyalash insoniyatning eng yorqin orzusi boʻlib kelgan. lekin dunyo xalqlarining barchasi ham bu haqda oʻylayvermagan. Bunday orzudagi insonlar azaliy-azaliy maʼrifatga, madaniyatga mansub boʻlgan yurtlarning donishmandlari – eng moʻtabar ziyolilari, hukmdorlari hisoblanganlar. Ularning orasida Oʻzbekiston deb atalmish muazzam va muqaddas zaminimizda yashagan bobolarimizning oʻz oʻrni, hurmati bor. Bu jahon hamjamiyati tomonidan qabul qilingan haqiqatdir. Prezidentimiz SH. Mirziyoyev taʼkidlab oʻtganlaridek, “Biz farzandlarimizning ongi, dunyoqarashi asrlar davomida sinovdan oʻtgan, yuksak maʼnaviyat xazinasi boʻlgan jahon va milliy adabiyotimiz asosida emas, balki qandaydir shubhali, zararli axborotlar asosida shakllanishiga beparvo qarab turolmaymiz”.¹

Maʼlumki, boshlangʻich taʼlim barkamol avlodni tarbiyalashdagi muhim bosqich hisoblanadi. Bolaning jismoniy va psixologik rivojlanishidagi eng asosiy davr – bu boshlangʻich sinf davridir.

Shuning uchun boshlangʻich taʼlimga eʼtibor va yangicha yondashuv xalq taʼlimining diqqat markazidagi vazifalardan biridir. Boshlangʻich taʼlimning samaradorligi oʻquvchilarda oʻziga xos tarzda tarkib topgan taʼlimiy faoliyatning shakllanish darajasiga bogʻliq. Bunday faoliyat nazariy bilimlarni oʻzlashtirish jarayonida, oʻqituvchi rahbarligida shakllanadi va muntazam ravishda yuksalib boradi.

Boshlangʻich taʼlimning samaradorligini taʼminlashda oʻqituvchining shaxsiy sifatlari va pedagogik kasb mahorati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlangʻich sinf oʻqituvchisi barcha pedagogik-psixologik vositalarni qoʻllagan holda kichik maktab yoshidagi oʻquvchilarda yaxlit tarzda oʻquv faoliyatini shakllantira olishi kerakligi bugungi kunda barchaga ayon. Bu oʻquv faoliyati

1 Мирзиёев Ш. Жисмоний ва маънавий баркамол ёшлар – бугунги ва эртанги кунимизнинг ҳал қилувчи кучидир \ Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Т., “Ўзбекистон”, 2017. 530-бет.

fonetik-grafik, grammatik, orfografik va orfoepik tushunchalar ustida ishlashda shakllansa, o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqidagi nuqsonlar yo'qola boradi.

O'quvchilar ilk bor maktabga qabul qilinganlaridan boshlab ularning og'zaki va yozma nutqiga e'tibor kuchaytiriladi. Dastlabki sinflardan boshlab o'quvchilarning husnixat malakalari ustida ishlash, ularga yozuv qoidalarini o'rgatib borish, alifbodagi har bir harfni yozuvda to'g'ri va aniq ifodalab berishga o'rgatish boshlang'ich sinf o'qituvchisidan juda katta mas'uliyatni talab qiladi.

“Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi”da ta'kidlanganidek, bugungi kunda o'zida ta'lim va tarbiya elementlarini mujassamlashtirgan boshlang'ich ta'lim jarayonini tashkil etish dolzarb masalalardan biridir. Boshlang'ich ta'lim jarayonida ona tili ta'limining ahamiyati katta. Chunki ona tili jamiki bilimlarning kaliti, poydevoridir. O'zbekiston Respublikasi Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturida uqtirilishicha, “Ona tili ta'limiga o'quv fani emas, balki butun ta'lim tizimini uyushtiruvchi ta'lim jarayoni sifatida qoraladi.

Ona tili ta'limi standarti ko'rsatkichlari bolani fikrlay olish, ifodalangan fikrni anglash va o'z fikrini savodli, mantiqiy izchillikda bayon eta olishga o'rgatish nuqtai nazaridan belgilanadi”.¹

Ona tili maktabda o'quvchining kamol topishida, fikrlash darajasining o'sishida, bilim va mehnatga havasini uyg'otishda, ilmiy tushunchalarini, nutqiy malakalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ona tilidan olib boriladigan barcha mashg'ulotlar tizimi shunday qurilishi kerakki, bu tizim o'quvchilarda ona tiliga muhabbat, o'z yurtiga, xalqiga mehr, Vataniga cheksiz hurmat va sadoqatni o'stirishi zarur.

Ona tili fani shunchaki fonetik va grammatik tushunchalarni bir yoqlama shakllantirish vazifasini bajarmaydi, balki o'quvchilarni badiiy til vositalari bilan ta'minlashi, ularda go'zal nutq madaniyatini tarbiyalashi, og'zaki va yozma nutqini o'stirishi, fikr-muldo hazalarini ifodali bayon etishga o'rgatib borishi lozim. O'quvchilarning har bir ilmiy-nazariy tushunchani amalda qo'llay olishlari uchun

1 Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Ona tili. (1 – 4-sinflar) Toshkent. “Yangiyo'l polygraph service”, 2010. 10-bet.

ona tili mashg'ulotlarida optimal usullardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bitiruv malakaviy ishimiz mavzusi boshlang'ich sinflarda "Undalma" mavzusi ustida ishlash xususida bo'lganligi uchun biz ishda asosiy e'tiborimizni boshlang'ich sinflar ona tili darslarida sintaktik tushunchalarga doir mavzular, xususan, undalma ustida ishlash usullarini yoritish masalalariga qaratdik.

Bitiruv malakaviy ishimiz mavzusining **d o l z a r b l i g i** – boshlang'ich ta'lim ona tili darslarida "Undalma" mavzusiga bag'ishlangan uslubiy tavsiya va ishlanmalarining zarurligidir. Chunki inson jamiyatda yashar ekan, o'zi yashaydigan va faoliyat olib boradigan jamiyat a'zolari bilan muloqotga kirishuvi uchun sintaktik ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi nihoyatda zarurdir.

M a q s a d i m i z – o'quvchilarning nutqini o'stirishda sintaktik tushunchalarni, xususan, undalmaga doir grammatik tushunchalarni shakllantirish va mustahkamlash usullaridan foydalanish texnologiyasi ustida imkoniyatimiz darajasida ishlash va bu haqdagi fikr-mulohazalarimizni yoritishdir.

Mavzuning i l m i y va n a z a r i y ahamiyati shundaki, o'quvchilarga undalma to'g'risidagi materiallarni berishda turli usullardan foydalanish ularning bilimini mustahkamlaydi, ularning darsga bo'lgan qiziqishini, ularda zukkolik qobiliyatlarini o'stiradi, mavzu mohiyati ustida tezroq idrok qila olish ko'nikmalarini hosil qiladi.

Biz bitiruv malakaviy ishimiz oldiga quyidagi **v a z i f a l a r n i** qo'ydik:

1. Inson nutqining inson tafakkurining mahsuli ekanligini yoritib berish.
2. Boshlang'ich sinflarda sintaktik tushunchalar ustida ishlash metodikasi haqida ma'lumot berish.
3. Boshlang'ich sinflar ona tili darslarida sintaktik tushunchalarga oid mavzular ustida ishlash mazmuni bilan tanishish.
4. Undalma haqida nazariy ma'lumot berish.
5. Boshlang'ich sinflarda undalma ustida ishlash jarayonini kuzatish va tahlil qilish.
6. Boshlang'ich sinflarda undalma yuzasidan tushuncha hosil qilish usullarini belgilash va tajribadan o'tkazish.

7. Boshlang'ich sinflarda undalma ustida ishlashda didaktik vositalardan: mustahkamlovchi mashqlar, ta'limiy o'yinlar, interfaol usullardan foydalanish texnologiyasi ustida ishlash va ularni tajribadan o'tkazish.

8. O'tkazilgan tajribalar natijalarini umumlashtirish va tahlil qilish, ishda tajriba natijalarini yoritib berish.

Bitiruv malakaviy ishimiz ob'yekti – Andijon viloyati, Andijon shahri ta'lim muassasalri faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limiga qarashli 21-umumta'lim maktabining boshlang'ich sinflari.

Bitiruv malakaviy ishimiz predmeti – boshlang'ich sinflar ona tili darslaridagi “Undalma” mavzusi ustida ishlash jarayoni

Bitiruv malakaviy ishimiz kirish, 2 ta bob, 7 ta paragraf, xulosa qismlaridan va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Ishimizning umumiy hajmi 55 sahifani tashkil qiladi.

I bob. Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida sintaktik mavzular – nutq o'qirishning asosi

“Ta’lim to’g’risida”gi Qonunda ta’limning ravnaqi, uning insonparvarligi, ta’lim va tarbiya tizimining uzluksizligi, ilmiyligi va davomiyligi, ta’limda umuminsoniy va ilmiy qadriyatlarning ustuvorligi, davlat ta’lim standartlari doirasida hammaning bilim olishi uchun imkoniyat yaratilishi ta’kidlab ko’rsatilgan.

Boshlang'ich sinflarda ona tilidan beriladigan bilimlar mazmunini o'zbek tilining tovush tuzilishi va yozma nutqda tovushlarni ifodalash usullari haqidagi, so'zlarning o'zgarishi va gapda so'zlarning bog'lanishi haqidagi, so'zlarning morfemik tarkibi va so'z yasalishi, so'zlarning leksik-semantik guruhi haqidagi, o'zbek tilining to'g'ri yozuv qoidalari va tinish belgilarining ishlatilishi haqidagi bilimlar tashkil etadi. Berilgan bu bilimlar o'quvchilar nutqini o'qirishga xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitishdan asosiy maqsad bolalarning yosh xususiyati va yozma nutqini, tafakkurini o'qirish, ularni shaxs sifatida shakllantirib borishni amalga oshirish, ularda bilim olishga qiziqishni o'qirish, faollik, mustaqillik, mehnatsevarlik, qiyinchiliklarni yengib olish qobiliyatlarini o'qirish hisoblanadi. Bolalarning aqliy va nutqiy qobiliyatlarini muvaffaqiyatli o'qirish kelgusida fanlarni puxta o'lashtirishlariga imkoniyat yaratadi.

Boshlang'ich sinflarda fonetika, grammatika, to'g'ri yozuv va nutq o'qirishdan beriladigan boshlang'ich ma'lumotlar o'rta maktablarda o'qitiladigan ona tili va adabiyoti sistematik kurslarining materiallari bilan organik bog'lanadi va o'zbek tilining turli tomonlariga taalluqli keng tushunchalarini qamrab oladi. O'quvchilar boshlang'ich sinflarda so'zlarning fonetik tarkibi bilan, so'zlarni bo'g'inlarga va ma'noli qismlarga bo'lish bilan, so'z turkumlari va gap turlari, gap bo'laklari bilan va bir qator to'g'ri yozuv qoidalari bilan tanishadilar.

“Boshlang'ich ta'lim” o'quv dasturiga muvofiq, boshlang'ich sinf o'quvchilari fonetik-grafik ko'nikmalar kompleksini egallaydilar: tovushlar va

harflar; unli va undosh tovushlar; jufti bor jarangli va jarangsiz undoshlar; jufti yo‘q jarangli va jarangsiz undoshlar; so‘zni bo‘g‘inlarga bo‘lish; urg‘uli bo‘g‘inni ajratish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.

Bu bo‘lim materiallarini birlashtiruvchi prinsip (tamoyil) nutq o‘stirish hisoblanadi. Nutq o‘stirish boshlang‘ich sinf ona tili ta’limiga aniq amaliy yo‘nalish beradi va bolalarda ongli o‘qish, o‘qiganlarini ravon gapirish va yozishga o‘rgatadi; ona tili va adabiyotdan bolalarning yosh xususiyatlari va saviyasini hisobga olgan holda boshlang‘ich bilim berishni, shu asosda nutqni boyitish, boshqalar nutqini e’tibor bilan tinglash hamda kitob o‘qishga qiziqish uyg‘otishga yo‘naltirishi zarur.

O‘quvchilar nutqini o‘stirish boshqa o‘quv predmetlaridan o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar bilan ham uzviy ravishda bog‘lanadi. Ona tili darslarida o‘quvchilar til yordamida tabiat va kishilar hayoti haqida bilim oladilar: ular kuzatishni, o‘ylashni va ko‘rganlari, eshitganlari haqida to‘g‘ri bayon qilishni o‘rganadilar. Ona tili darslari bolalar lug‘atini boyitishiga samarali yordam beradi, nutqni to‘g‘ri tuzishni o‘rgatadi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilar nutqini o‘stirishda badiiy matnlarning roli kattadir. Demak, nutq o‘stirish, o‘quvchilarning bog‘lanishli nutqi ustida ishlash ona tili ta’limi oldida turgan asosiy masalalardan biri hisoblanadi.

1 - §. Inson nutqi – inson tafakkurining mahsuli

Inson nutqi – inson tafakkurining mahsuli bo‘lib, bu faoliyat turi til vositalari asosida tafakkurni ishga solishdir. Nutq o‘zaro aloqa hamda xabar funktsiyasini, o‘z fikrini his-hayajon bilan ifodalash va boshqalarga ta’sir etish vazifasini bajaradi.

O‘zbek tilidagi “nutq” atamasi aslida arabcha so‘zdan olingan bo‘lib,

“1. Fikrni so‘z orqali ifodalash qobiliyati, mahorati. (Nutqi yomon. Bolaning nutqini o‘stirmoq.)

2. Amaldagi, so‘zlashuv jarayonidagi til (Nutq madaniyati. Biz nutqimizda ayrim so‘zlarni o‘zaro biriktirib gap tuzamiz.); tilning biror janri, uslubi (Poetik nutq. Badiiy nutq. Og‘zaki nutq.); jamoat oldida aytiladigan, o‘qiladigan gap, va’z (Otashin nutq. Hayajonli nutq. Notiqning nutqi. Nutq so‘zlamok. Nutqqa tayyorlanmoq.)”¹ ma’nolarini bildiradi.

Nutq fikrni ifodalash qurolidir. Shu bilan birga, nutq fikrni bayon etish vositasi bo‘libgina qolmay, uni shakllantirish quroli hamdir. Fikr nutqning psixologik asosi vazifasini bajaradi, uni o‘stirish sharti esa fikrni boyitish hisoblanadi. Aqliy faoliyat sistemasini egallash asosidagina nutqni muvaffaqiyatli o‘stirish mumkin. Shuning uchun o‘quvchilar nutqini o‘stirishda materialni tayyorlash, takomillashtirish, mavzuga oidini tanlash, joylashtirish masalalariga, mantiqiy qurilmalarga katta e’tibor qaratiladi.

Tafakkur til materiali (so‘zlar) yordamida nutqiy shakllantirilsa va bayon etilsagina, muvaffaqiyatli o‘sadi. Tushuncha so‘zlar bilan yoki so‘z birikmasi bilan ifodalanadi. Kishi tushuncha ifodalaydigan so‘z yoki so‘z birikmasini bilsagina, shu tushunchaga asoslangan holda, tashqi nutqda fikrlash imkoniga ega bo‘ladi.

Nutqda fikr shakllantiriladi, shu bilan birga, fikr nutqni yaratadi. Nutq tafakkur bilan chambarchas bog‘liqdir. Agar nutq bo‘lmasa, tafakkur ham bo‘lmaydi. Shu bilan birga, til materiali bo‘lmasa, fikrni ifoda qilib bo‘lmaydi.

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. М., “Рус тили” нашриёти, 1980, 514-бет.

Fikrni nutqiy shakllantirish uning aniq, tushunarli, sof, izchil, mantiqiy bo'lishini ta'minlaydi. Tilni egallash shu tilning fonetikasini, lug'at sostavini, grammatik qurilishini bilib olish, fikrni takomillashtirish uchun, tafakkurni o'stirish uchun shart-sharoit hozirlaydi. O'quvchining barcha fanlardan mavzularni o'zlashtirishi va umumiy aqliy rivojlanishi haqida fikr yuritganda, u yoki bu mavzuni bola o'z nutqida, masalan, yozgan inshosida, axborotida, qayta hikoyalashda, savollarga bergan javobida qanday bayon eta olishga qaratiladi.

Demak, nutqni tafakkurdan ajratib olib bo'lmaydi, nutq tafakkur asosida rivojlanadi; fikr nutq yordamida pishib yetiladi, yuzaga chiqadi. Ikkinchi tomondan, nutqning o'sishi fikrni shakllantirishga yordam beradi, takomillashtiradi.

Har tomonlama rivojlangan nutq jamiyatda kishi faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. O'quvchi uchun esa maktabda muvaffaqiyatli bilim olish vositasi hisoblanadi. O'quvchining nutqini o'stirish tilni har tomonlama (talaffuzi, lug'ati, ya'ni so'z boyligi, sintaktik qurilishi, bog'lanishli nutqni) amaliy o'zlashtirishga erishishi demakdir.

Nutq o'stirish masalasi ta'limda, ayniqsa, ona tili ta'limida asosiy masala hisoblanadi. Nutq o'stirish boshlang'ich sinf ona tili ta'limida aniq amaliy yo'nalish beradi va bolalarda ongli o'qish malakalarini hosil qiladi, o'qiganlarini ravon gapirish va yozishga o'rgatadi, ona tili va adabiyotdan bolalarning yosh xususiyatlari va saviyasini hisobga olgan holda boshlang'ich bilim berishi, shu asosda nutqni boyitish, boshqalar nutqini e'tibor bilan eshita olish hamda kitob o'qishga qiziqish uyg'otishga yo'naltirilishi zarur.

Boshlang'ich sinflar ona tili ta'limi o'quvchilarda nutq faoliyatining asosiy turlarini o'stirish bilan bir qatorda, quyidagi muhim masalalarni ham hal etishni ko'zda tutadi:

Boshlang'ich sinflarda ona tilidan beriladigan bilimlar mazmunini o'zbek tilining tovush tuzilishi va yozma nutqda tovushlarni ifodalash usullari haqidagi, so'zlarning o'zgarishi va gapda so'zlarning bog'lanishi haqidagi, so'zlarning morfemik tarkibi va so'z yasalishi, so'zlarning leksik-semantik guruhi haqidagi,

o'zbek tilining to'g'ri yozuv qoidalari va tinish belgilarining ishlatilishi haqidagi bilimlar tashkil etadi. Berilgan bu bilimlar o'quvchilar nutqini o'stirishga xizmat qiladi.

Nutq faoliyati uchun, shuningdek, o'quvchilar nutqini o'stirish uchun bir necha shartga rioya qilish zarur:

◀ Kishi nutqining yuzaga chiqishi uchun qat'iy talab bo'lishi kerak. O'quvchilar nutqini o'stirishning metodik talabi o'quvchining o'z fikrini, nimanidir og'zaki yoki yozma bayon qilishga xohishini va zaruriyatini yuzaga keltiradigan vaziyat yaratish hisoblanadi.

◀ Har qanday nutqning mazmuni, materiali bo'lishi lozim. Bu material qanchalik to'liq va boy hamda qimmatli bo'lsa, uning bayoni shunchalik mazmunli va to'liq bo'ladi. Shuning uchun o'quvchilar nutqini o'stirishning ikkinchi sharti nutqqa oid mashqlarning materiali haqida, bolaning nutqi mazmunli bo'lishi uchun g'amxo'rlik qilish hisoblanadi.

◀ Fikr tinglovchi tushunadigan so'z, so'z birikmasi, gap, nutq oborotlari yordamida ifodalansagina, tushunarli bo'ladi. Shuning uchun nutqni muvaffaqiyatli o'stirishning uchinchi sharti — nutqni til vositalari bilan qurollantirish hisoblanadi. Bolalarga til namunalari berish, ular uchun yaxshi nutqiy sharoit yaratish zarur. Nutqni eshitish va undan o'z tajribasida foydalanish natijasida bolalarda ta'lim metodikasi asoslanadigan ongli ravishda “tilni sezish” shakllanadi.

Boshlang'ich sinflarda olib boriladigan ta'limiy ishlarning asosiy yo'nalishlaridan biri o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish, muomala odobini shakllantirish hisoblanadi.

O'quvchilar nutqini o'stirish ustida ishlash savod o'rgatishning birinchi kunlaridanoq boshlanib, o'qish va ona tili darslari, atrofimizdagi olam, matematika va boshqa fanlar, sinfdan tashqari mashg'ulotlar bilan bog'liq holda izchillik bilan davom ettiriladi. Nutqiy mashqlardan bog'lanishli nutqqa oid og'zaki va yozma mashqlarga alohida ahamiyat beriladi.

Demak, ogʻzaki nutq oʻstirish mashgʻulotlari, asosan, oʻqish darslarida matn ustida ishlash jarayonida, badiiy asar tahlili jarayonida oʻtkaziladi. Ona tili darslarida esa ayniqsa sintaktik tushunchalarga oid mavzular ustida ishlash jarayonida nutq oʻstirishga alohida eʼtibor qaratiladi.

2-§. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar nutqi ustida ishlashning metodik asoslari

“Ta’lim to’g’risidagi Qonunda ta’limning ravnaqi, uning insonparvarligi, ta’lim va tarbiya tizimining uzluksizligi, ilmiyligi va dunyoviyligi, ta’limda umuminsoniy va ilmiy qadriyatlarning ustuvorligi, davlat ta’lim standartlari doirasida hammaning bilim olishi uchun imkoniyat yaratilishi ta’kidlab ko’rsatilgan.

Uzluksiz ta’lim tizimida boshlang’ich ta’lim muhim bosqich hisoblanadi va unda ona tilini o’qitish asosiy o’rin egallaydi. Ona tili dasturi quyidagi bilimlarni o’z ichiga oladi:

1. Savod o’rgatish, nutq o’stirish.
2. Fonetika, grammatika, imlo va nutq o’stirish.¹

Ona tili o’qitishning mazmuni va metodlari o’quvchilarda dastur talab qilgan hajmda puxta bilim berish, ko’nikma va malakalar hosil qilishga qaratilishi lozim.

Maktabni bitirib chiqqan yoshlar ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotning rang-barang jabhalarida, muloqot va munosabatning barcha turlarida o’zbek tilidan bemalol – erkin, samarali va to’g’ri foydalana olish, uning cheksiz imkoniyatlaridan to’laqonli bahramand bo’lish, zaruriy ko’nikma va malakalarga ega bo’lishlari kerak.

Ona tili ta’limi oldida quyidagi bosh maqsad turadi: ona tili mashg’ulotlari bolalarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq vaziyatiga mos ravishda og’zaki va yozma shakllarda to’g’ri va ravon ifodalash ko’nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilishi lozim.

Uzluksiz davlat ta’lim standarti va o’quv dasturi uqtirilishicha, ““Ona tili” darslarida o’quvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga yo’naltirish lozim. Shuning uchun ushbi dastur va u asosida yaratilajak darsliklarda Grammatik qoidalarni

¹ Uzviylashtirilgan Davlat ta’lim standarti va o’quv dasturi. Ona tili. (1 – 4-sinflar) Toshkent. “Yangiyo’l polygraph service”, 2010. 16-bet.

yodlatishdan voz kechish, ijodiy tafakkur tarzini shakllantirish, dars va mashg'ulotlarni o'quvchilarning nutqiy malakasini yuzaga keltirishga qaratish maqsad qilib olindi".¹

Ona tili o'qitishning asosiy shartlaridan biri o'quvchilar lug'atini boyitish va undan nutq davomida to'g'ri foydalana olishga, o'z fikrini boshqalarga ravon yetkaza olishga o'rgatish hisoblanadi. Nutq o'stirishning metodik sharti nutqiy faoliyatning keng tizimini yaratish, ya'ni, birinchidan, yaxshi nutq namunasini idrok etish, ikkinchidan, o'rgangan til vositalaridan foydalanib, o'z fikrini bayon etish uchun sharoit yaratish hisoblanadi.

Bola tilni nutqiy sharoit, nutqiy muhit jarayonida o'zlashtiradi. Lekin buning o'zini yetarli deb bo'lmaydi. Chunki u nutqni yuzaki o'zlashtiradi. Nutqni egallashning bir necha omillari mavjud bo'lib, bular quyidagilardir:

◀ Adabiy til me'yorlarini o'zlashtirish. Maktab bolalarni adabiy tilni sodda so'zlashuv tilidan, dialekt va jargondan farqlashga o'rgatadi, adabiy tilning badiiy, ilmiy, so'zlashuv variantlari bilan tanishtiradi.

◀ Jamiyatimizning har bir a'zosi uchun zarur bo'lgan muhim nutq malakalarini, ya'ni o'qish va yozish malakalarini o'zlashtirish. Bu bilan bola yozma nutqning xususiyatlarini, uning og'zaki so'zlashuv nutqidan farqini bilib oladi.

◀ O'quvchilar nutq madaniyatini takomillashtirish.

Bu vazifalarni bajarish uchun o'qituvchi o'quvchilar bilan ma'lum bir reja asosida ish olib borishi maqsadga muvofiqdir. Buning uchun esa o'quvchilar nutqini o'stirish ustida ishlash tushunchasiga nimalar kirishini bilib olish muhimdir.

Nutq o'stirishda uch yo'nalish aniq ajratiladi:

1. So'z ustida ishlash.
2. So'z birikmasi va gap ustida ishlash.
3. Bog'lanishli nutq ustida ishlash.

¹ Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Ona tili. (1 – 4-sinflar) Toshkent. “Yangiyo'l polygraph service”, 2010. 17-bet.

Soʻz, soʻz birikmasi va gap ustida ishlash uchun leksikologiya, morfologiya, sintaksis lingvistik baza boʻlib xizmat qiladi; bogʻlanishli nutq esa logikaga (mantiqqa), adabiyotshunoslik va murakkab sintaktik butunlik lingvistikasiga asoslanadi. Bu uch yoʻnalish bir vaqtda parallel olib boriladi: lugʻat ishi gap uchun material beradi; soʻz, soʻz birikmasi va gap ustida ishlash bogʻlanishli nutqqa tayyorlaydi. Oʻz navbatida, bogʻlanishli hikoya va insho lugʻatini boyitish vositasi boʻlib xizmat qiladi.

Oʻquvchilar nutqini oʻstirish oʻz metodik vositalariga ega, yaʼni oʻzining mashq turlari bor. Bulardan eng muhimlari bogʻlanishli nutq mashqlari hisoblanadi.

Nutq oʻstirishda izchillik toʻrt muhim shartni:

◀ Mashqlarning izchilligi;

◀ Istiqboli;

◀ Xilma-xilligi;

◀ Xilma-xil mashq turlarini umumiy maqsadga boʻysundirish koʻnikmasini amalga oshirish bilan taʼminlanadi. Har bir yangi mashq oldingisi bilan bogʻlanadi va keyingisiga oʻquvchilarni tayyorlaydi, umumiy maqsadga boʻysungan holda, nimadir yangilik qoʻshadi.

Maktabda oʻquvchilar nutqini oʻstirishga ona tili oʻqitishning asosiy vazifasi deb qaraladi. Lekin nutq oʻstirish faqat ona tili va oʻqish darslarininggina emas, balki oʻquv rejasidagi barcha fanlarning: matematika, tabiatshunoslik, mehnat, ashula, tasviriy sanʼat darslarining ham, shu bilan birga, sinfdan tashqari tadbirlarning ham asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

Oʻquvchilar nutqini oʻstirishda aniq belgilangan bir qator talablarga rioya qilinadi.

1. ***Oʻquvchilar nutqi mazmundor boʻlishi kerak.*** Hikoya yoki insho oʻquvchilar uchun yaxshi maʼlum boʻlgan faktlar, ularning kuzatishlari, hayotiy tajribalari, kitoblardan, rasmlardan, radiolavhalardan, telekoʻrsatuvlardan, gazeta va jurnallardan, internet xabarlaridan olgan maʼlumotlari asosida tuzilsagina mazmunli boʻladi. Bolalar bilmagan, idrok qila olmaydigan predmet, voqea-

hodisalar haqida yetarli tayyorgarliksiz so‘zlashga yo‘l qo‘yilsa, nutq kambag‘al, mazmunsiz chiqadi.

Nutq o‘stirish metodikasi hikoya yoki insho uchun materialni puxta tayyorlashni, ya’ni material yig‘ish, uni muhokama qilish, to‘ldirish, asosiy mazmunni ajratish, zaruriy izchillikda joylashtirishni talab qiladi. Albatta, bunda o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va qiziqishlari ham hisobga olinadi.

2. ***Nutqda mantiqiylik bo‘lishi kerak.*** O‘quvchilar nutqi mantiqan to‘g‘ri bo‘lishi, fikr izchil, asosli bayon etilishi, asosiy o‘rinlar tushirib qoldirilmasligi va o‘rinsiz takrorga, mavzuga taalluqli bo‘lmagan ortiqcha fikrlarga yo‘l qo‘yilmasligi talab etiladi.


3. ***Nutq aniq bo‘lishi kerak.*** O‘quvchi faktlar (dalillar), kuzatishlar hamda taassurotlarini haqiqatga mos ravishda oddiy bayon etibgina qolmay, shu maqsadning eng yaxshi til vositalaridan, ya’ni so‘z, so‘z birikmasi, gaplardan foydalangan holda, maxsus tasvirlar bilan ifodalashga o‘rgansin.

4. ***Nutq til vositalariga boy bo‘lishi kerak.*** Mazmunni aniq ifodalash uchun o‘quvchi nutqi til vositalariga boy bo‘lishi, u har qanday vaziyatda ham kerakli sinonimlardan, xilma-xil tuzilgan gaplardan mazmunga eng mosini tanlab foydalana olish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi kerak. Albatta, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga til boyligi yuzasidan talab qo‘yib bo‘lmaydi, ammo o‘qituvchi o‘quv ishlarida ularning so‘z boyligini oshirib, o‘quvchilar faol lug‘ati ustida ishlab borishni ko‘zda tutishi kerak.

5. ***Nutq tushunarli bo‘lishi kerak.*** Og‘zaki nutq eshituvchiga, yozma nutq esa uni o‘quvchiga tushunarli bo‘lishi zarur.

6. ***Nutq ifodali bo‘lishi kerak.*** Agar nutq ifodali, ya’ni jonli, chiroyli, ishonarli bo‘lsa, nutq eshituvchiga yoki o‘quvchiga ta’sir etadi. Og‘zaki nutq eshituvchiga ohang orqali ta’sir etsa, og‘zaki nutq ham, yozma nutq ham tinglovchi va o‘quvchiga hikoyaning umumiy ruhi, dalillar, tanlangan so‘zlar, ularning emotsionalligi, tuzilgan jumla, iboralar yordamida ta’sir etadi. Nutqning tushunarli va ifodali bo‘lishi har qanday shevaga xos va ortiqcha so‘zlardan xoli, sof bo‘lishni taqozo qiladi.

7. **Nutq to'g'ri bo'lishi kerak.** Maktab muhiti va o'quvchisi uchun nutqning adabiy til me'yorlariga mos bo'lishi alohida ahamiyatga ega. YOzma nutqning grammatika, imlo va punktuatsiya jihatidan, og'zaki nutqning esa orfoepik jihatdan to'g'ri tuzilishi talab etiladi. Nutqning to'g'ri bo'lishi uchun so'z tanlash va nutq logikasi katta ahamiyatga ega. Buni quyidagi sxema orqali ko'rsatish mumkin:



Bu talablar bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lib, o'quv ishlari tizimida birgalikda amalga oshiriladi.

II bob. Boshlang'ich sinflarda "Undalma" mavzusi ustida ishlash

Boshlang'ich sinflarda ona tili dasturidagi quyidagi masalalar nutq o'qitishda, o'quvchilarning so'z birikmasi va gap tuza olish ko'nikmalarini o'qitishda asos bo'lib xizmat qiladi:

- Ot, fe'l va olmoshlarning egalik, kelishik, shaxs-son qo'shimchalari bilan qo'llanilishi
- Gap haqidagi ma'lumotlar
- Gap bo'laklari haqidagi ma'lumotlar
- Uyushiq bo'laklar va **undalma** haqidagi ma'lumotlar
- Sodda va qo'shma gap haqidagi ma'lumotlar

1-§. Boshlang'ich sinflarda sintaktik tushunchalar ustida ishlash mazmuni

O'zbek tilshunosligi fanining grammatika qismida o'zbek tilining grammatik qurilishi o'rganiladi.

Grammatika ikki bo'limdan: morfologiya va sintaksis qismlaridan iborat bo'lib, morfologiya bo'limida so'z turkumlari o'rganiladi. Sintaksis grammatikaning ikkinchi qismi bo'lib, unda so'zlarning bir-biriga bog'lanib, so'z birikmalari hosil qilinishi, gap turlari o'rganiladi.

"Sintaksis" grekcha so'z bo'lib, "tuzish" demakdir.

Sintaksis, o'z navbatida,

a) **so'z birikmasi sintaksisi;**

b) **gap sintaksisi**

kabi ikkita bo'limga ajraladi.

Boshlang'ich sinflarda ona tili darslarining muhim vazifalaridan biri fikrni ifodalashda gapdan ongli foydalanish ko'nikmasini shakllantirish hisoblanadi.

Boshlang'ich sinflardan boshlab sintaktik tushunchalar ustida ishlash o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish, ularning o'z fikrini to'g'ri va tushunarli tarzda ifodalay olish, suhbatdoshiga, ya'ni o'zgalarga to'g'ri yetkaza olish, grammatik jihatdan to'g'ri, mazmunli nutq tuza olish qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinflarda sintaktik tushunchalarga oid mavzular 1-sinfdan boshlab o'quvchilarga ham amaliy, ham nazariy tarzda berib boriladi.

1-sinfda sintaktik tushunchalarga oid mavzular nomi:¹

“Nutq. Gap” bo'limi

- Og'zaki nutq va yozma nutq
- Gap

¹ G'afforova T., Shodmonov E., G'ulomova X. Ona tili. 1-sinf uchun darslik. T., “Sharq”, 2015.

2-sinfda sintaktik tushunchalarga oid mavzular nomi:¹

- Gap va soʻz

Nutq. Matn. Gap

Gapning asosi. Gapda soʻzlarning bogʻlanishi

3-sinfda sintaktik tushunchalarga oid mavzular nomi:²

- Nutq. Gap. Soʻz

“Gap” boʻlimi

- Darak gap. Soʻroq gap. Undov gap
- Darak gap
- Soʻroq gap
- Undov gap
- Gap boʻlaklari
- Bosh boʻlaklar
- Ikkinchi darajali boʻlaklar
- Gapda soʻzlarning bogʻlanishi

4-sinfda sintaktik tushunchalarga oid mavzular nomi:³

- Gap
- Gap boʻlaklari
- Gapda soʻzlarning bogʻlanishi
- Uyushiq boʻlakli gaplar
- Uyushiq boʻlaklarning bogʻlanishi
- **Undalma**
- Nutq. Matn

Yuqoridagi sintaktik tushunchalarga oid mavzular oddiydan murakkablikka qarab uzviy bogʻliqlikda sinfma-sinf tadrijiy tarzda berib boriladi.

¹ Qosimova K., Fuzailov S., Neʼmatova A. Ona tili. 2-sinf uchun darslik. T., Choʻlpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012.

² Fuzailov S., Xudoyberganova M. Ona tili. 3-sinf uchun darslik. T., “Oʻqituvchi”, 2011.

³ Ikromova R., Gulomova X., Yoʻldosheva Sh., Shodmonqulova D. Ona tili. 4-sinf uchun darslik. T., “Oʻqituvchi”, 2009.

2-§. Boshlang'ich sinflarda undalma ustida ishlashning nazariy-metodik asoslari

Undalma. So'zlovchining nutqi qaratilgan shaxs yoki predmetni bildirgan so'z undalma deyiladi. Undalma aytilayotgan fikrga tinglovchining e'tiborini tortish uchun xizmat qiladi. Undalmalar ega singari bosh kelishikda qo'llaniladi, ammo ega grammatik jihatdan gapda kesim bilan bog'lanadi, undalmalar esa grammatik jihatdan hech bir bo'lakka bog'lanmaydi. Undalma gapdagi boshqa so'zlar bilan sintaktik jihatdan bog'lanmasa ham, o'zi ishtirok etayotgan gapning umumiy mazmuni bilan zich aloqada bo'ladi.

Undalmali gaplarning kesimi ko'pincha birinchi va ikkinchi shaxs-son shakllarida bo'ladi. Undalma gapda alohida ohang bilan ajralib turadi. Undalmaning gapdagi o'рни erkin bo'lib, gap boshida ham, gap o'rtasida ham, gap oxirida ham kelishi mumkin. Masalan: qizim, menga yordamlashib yubor. Menga yordamlashib yubor, qizim. Menga, qizim, yordamlashib yubor

Undalma bosh kelishik shaklidagi ot yoki otlashgan so'zlar bilan ifodalanadi. Masalan: Xalqim (ot), bugun orzuimga ushlagan kun! Dunyoni qizg'anma mendan, azizim (otlashgan sifat). Ikkinchi, ikkinchi (son), menga javob bering.

Undalmalar yig'iq yoki aniqlovchi, izohlovchi so'zlar olib birikma holda, ya'ni yoyiq holda bo'lishi mumkin. Masalan: Salom senga, polosonlik Haydar kapitan! Ertangi saodatli kunlar uchun ovoz ber, aziz vatandosh!

Kuchli hayajon bilan aytilgan gaplarda undalmalar ba'zan uyushiq holda, takrorlangan holda kelishi mumkin. Masalan: Azizlarim, qadrdonlarim, sizlarni juda sog'indim! Seni unutolmas yuragim aslo, Ey O'rta Osiyo, O'rta Osiyo!

Ba'zan undalmalar -u(-yu), -ov, ey kabi undovlar bilan birga qo'llaniladi. Masalan: Qizlar-u! Tezroq kelinglar, tushlik boshlandi!

Undalma vazifasida ko'proq shaxs otlari, qarindoshlik, kasb, hunar nomlarini anglatuvchi so'zlar keladi. Masalan: Dilnoza, muvaffaqiyatingiz bilan

dildan qutlayman. To‘kilgandan tomchilagan yomon, uka, tomchilagan yomon!
(A.Q.)

Mehr nuri yoqar doim ko‘zingizdan, ustozlar,

Yursam deyman bu tabarruk izingizdan, ustozlar! (P.M.)

Ayrim hollarda badiiy adabiyotda turli predmet, tabiat hodisalarining nomlari ham undalma vazifasida kelishi mumkin. Masalan: Hayot, bunchalar go‘zalsan!

Kelinglar, go‘zal gullar,

Keling, oshiq bulbullar.

Chin sevgini kuylaylik,

Orom olsun ko‘ngillar! (Sh.R.)

Undalma gapning turli joylarida kelishi mumkin. Undalma gap boshida kelsa, yozuvda undan so‘ng yo vergul, yoki undov belgisi qo‘yiladi. Undov belgisi undalma kuchli his-hayajon bilan aytilgan vaqtda qo‘yilib, undan keyin nisbatan uzoqroq to‘xtam bo‘ladi. Masalan: Bolajonlarim! Sizlar mening borim, mening kelajagimsiz!

Undalma gapning oxirida kelsa, undan oldin vergul qo‘yiladi. Undalmadan keyin esa gapning mazmuni talab qilgan belgi qo‘yiladi. Masalan: Otaning yangi orzusini tingla, O‘ktamjon! (O.)

Undalma gap ichida kelsa, har ikki tomonidan vergul bilan ajratiladi. Masalan: Kechir meni, do‘stim, dilingni ko‘p og‘ritdim.

3-§. Boshlang'ich sinflarda undalma ustida ishlash mazmuni

Ishimizning oldingi paragraflarida aytib o'tilganidek, o'quvchilarni nutqiy muloqot jarayonida gapdan o'rinli foydalana olishga o'rgatish, buning uchun ularni sintaktik tushunchalar, jumladan, undalmalar bilan tanishtirib borish alohida ahamiyatga ega.

Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturining "Ona tili" qismida "Undalma" mavzusi yuzasidan o'quvchilar egallashlari zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar me'vori quyidagicha belgilangan:

Undalma (6 soat)

Undalma so'zlovchining nutqi qaratilgan shaxs ekanligi; undalmaning bosh kelishikdagi ot bilan ifodalanishi; uning o'ziga xos xususiyati, gap tarkibida gap bo'lagi vazifasini bajarmasligi; gapda boshqa bo'laklar bilan bog'lanmasligi; o'ziga xos undash; chaqirish ohangi bilan aytilishi; gapning boshida, oxirida, o'rtasida qo'llanishi; undalma qatnashgan gaplarda undash yoki chaqirish ohangining kuchli yoki kuchsizligiga qarab, undalmadan so'ng vergul yoki undov belgisining qo'yilishi.

Amaliy jihatdan nutqda undalmani o'rinli qo'llash, undan to'g'ri foydalanishga e'tibor berish: nutq (gap) tarkibida qo'llangan undalmalarni aniqlay olish. Mazmuniga ko'ra ularni undash yoki chaqirish ohangi bilan o'qish. Undalma bilan boshqa bo'laklar orasiga qo'yilgan vergulni, undov belgisini aniqlab, izohlay olish. Gapdagi undalmalarni tushirib o'qish, mazmundagi o'zgarishni izohlash. Gapga undalma qo'shib o'qish, gap mazmunini izohlash¹.

Boshlang'ich sinflarda "Undalma" mavzusi 4-sinfda o'tiladi. Bu darsning maqsadi o'quvchilarga undalma haqida tushuncha hosil qilish , gapning bosh bo'lagi bo'lgan egadan uning farqli tomonlarini ajrata olishni o'rgatishdir. O'quvchilar bu sinfda undalmaning o'ziga xos xususiyatlarini, uning bosh

¹ Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Ona tili. (1 – 4-sinlar) Toshkent. "Yangiyo'l polygraph service", 2010. 127-bet.

kelishikda kelishi, ot soʻz turkumiga oid soʻzlar bilan ifodalanishi, eganing soʻroqlariga (kim?, nima?, qayer?) javob boʻlishi, lekin egadan farqlanishini bilib oladilar. Undalmaning egadan farqli boʻlgan asosiy xususiyati uning gapning boshqa boʻlaklari (kesim) bilan oʻzaro bogʻlana olmasligi haqidagi tushunchaga ega boʻladilar. Oʻquvchilar undalma soʻzlovchining fikri qaratilgan shaxs yoki narsa, baʼzan joy maʼnosidagi soʻz bilan ifodalanib, undash, chaqirish, eʼtibor tortish uchun ishlatilishi bilan birga, ayrim punktuatsion qoidalar bilan ham tanishib boradilar. Undalmaning gap boshida, oʻrtasida, ayrim hollarda gap oxirida kelishi va ular gapning boshqa boʻlaklaridan ogʻzaki nutqda toʻxtam bilan, yozuvda esa vergul, agar undalma kuchli his-hayajon bilan aytilsa, undov belgisi bilan ajratilishi haqidagi maʼlumotlar bilan tanishadilar. Bu nazariy fikr va maʼlumotlar amaliy mashqlar va boshqa didaktik materiallar yordamida mustahkamlanadi.

Bu sinfda ular, yaʼni oʻquvchilar yozuvda undalmani qanday belgilashni oʻrganadilar. Yozuvda undalma kim?, nima? yoki kimlar?, nimalar?, baʼzan qayer? soʻroqlariga javob boʻlib kelishini va ikki uzun toʻgʻri va toʻlqinli chiziq bilan

(_____)

(~~~~~~)

bilan belgilanishini oʻrganadilar.

Boshlangʻich sinflarda undalma yuzasidan shunday bilimlar beriladi. Undalmalarning boshqa xususiyatlari, yaʼni ularning boshqa soʻz turkumlari bilan ifodalanishi, takror holda qoʻllanishi, murakkab koʻrinishga ega boʻlishi kabi malumotlar bilan oʻquvchilar yuqori sinflarda tanishadilar.

Undalma ustida ishlashda nutqiy malakalarni shakllantirish tamoyillari:

Undalma oʻrnida keluvchi soʻzlarning jonli hamda jonsiz predmetlarni ifodalashini uqtirib borish.

Undalmani doim bosh kelishikda kelib, kim?, nima?, kimlar?, nimalar? so‘roqlaridan biriga javob bo‘lishini tushuntirish.

Undalmaning gap bo‘lamlari bilan sintaktik aloqaga kirisha olmasligini, ya’ni gap bo‘lamlari bilan bog‘lanmasligini amalda ko‘rsatib borish.

Mashqlarni doimo ko‘rgazmalilik asosida uyushtirish.

Og‘zaki mashqlardan yozma mashqlarga muntazam o‘tib borish.

“Undalma” ustida ishlashda nutqiy mashqlar tizimi:

1. Matndan undalmani topib, so‘roq berish, gapdagi o‘rnini o‘zgartirish.

4-sinf.

“Undalma” mavzusi

73-mashq.

- *Bobojon, men kaklikni Toshkentga olib ketsam maylimi? U Toshkentda zerikmaydi.*

- *Bilmadim, bolam. Kaklik salqin tog‘ havosiga o‘rgangan.*

Akram kaklikni uyga olib keldi va dadasidan so‘radi:

- *Dadajon, kaklik nega sayramayapti?*

- *Akram, unga tabiat va toza havo kerak. Qushlar qafasda sayramay qo‘yadi, - dedi dadasi.*

Akram qafas og‘zini ochdi. Kaklik “qiyq” deb qafasdan chiqdi va uchib ketdi. (“Gulxan”dan)

2. Chiziqlar o‘rniga undalmalar topib qo‘yib, matnni ko‘chirish.

71-mashq.

Gaplarni o‘qing. Ularga undalmalar qo‘shib yozing. YOzganingizni tekshiring. Undalmali gaplar maqsadga ko‘ra qanday gap ekanini ayting.

- _____, Farhod juda qo‘rqoq ekan, - dedi rustam.

- Nega, nima qildi? – so‘radi onasi.

- Qishlog‘imiz bog‘idagi olmadan olmoqchi edik. Farhod qorovul ko‘rib qoladi deb, uyiga ketdi.

- _____, Farhod hammangizdan zo‘r ekan, - dedi oyisi.

Muhabbat Hamidova

3. Berilgan gapdagi undalmani egaga almashtirib, gaplarni o‘zgartirish.

- Aka, gullarga suv quyishga yordamlashing. (Akam gullarga suv quyishga yordamlashdi)

4. Bir undalmani bir necha undalmaga ko‘paytirish.

Do‘stlarim, men sizlarni hurmat qilaman. (Do‘stlarim, sinfdoshlarim, men sizlarni hurmat qilaman)

Bu mashq o‘quvchilar tomonidan og‘zaki tarzda bajarildi. Buning uchun bir nechta tarqatmali varaqalar o‘quvchilarga tarqatildi. Varaqalardagi so‘zlarni undalma sifatida qo‘llab, gaplar tuzish vazifa qilib topshirildi.

1. O‘zbekiston, Vatanim.

2. Ona, ustoz.

3. Tinchlik, mustaqillik.

5. Undalmasi yo‘q gapdan undalmani “topish”.

Bugun biznikiga kelasizmi? Sizni juda yaxshi ko‘raman. Sen mening qadrdon do‘stimsan, chunki sen menga bilim sirlarini o‘rgatasan. Sen tug‘ilib o‘sgan go‘shamsan, shuning uchun seni e‘zozlayman.

Undalma ustida ishlashda grammatik tushunchalar ustida ishlash bosqichlariga amal qilinib, mustahkamlash mashqlariga ko‘proq beriladi.

Undalma ustida ishlash mashqlari:

1. Gaplarni ko`chirib undalmani belgilash.
2. Chiziqlar o`rniga mos undalmani qo`yib gaplarni ko`chirish.
3. Gapdagi egani undalmaga almashtirish.
4. Matndan faqat undalmali gaplarni ajratib ko`chirish.
7. Topshiriqli, ijodiy diktant o`tkazish.
8. Bayon va insho o`tkazish.

4-§. Boshlang'ich sinflarda “Undalma” mavzusi ustida ishlash metodikasi

Boshlang'ich sinflarda undalma ustida, asosan, 4-sinfda ishlanadi. Bu sinfda undalmani o'rganish bilan gap bo'laklari va ularning o'zaro bog'lanishi haqidagi tasavvurni o'stirish gapni o'zlashtirishda yetakchi omillardan hisoblanadi. Chunki undalma nutqda juda ko'p qo'llanganligi bilan gap bo'laklari bilan o'zaro bog'liqlikda bo'lmaydi. Bu holat o'z-o'zidan muammoli savolni keltirib chiqaradi. Agar undalma gapda boshqa so'zlar bilan bog'lanmasa, u holda, u gapda qanday vazifa bajaradi? O'qituvchi mavzu doirasida mana shu savolga javob berishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi hamda undalmaning gapdagi o'рни va ahamiyatiga alohida to'xtaladi

Undalmalar ustida, asosan, 4-sinfda ishlanadi.

4-sinfda undalma faqat 1 ta mavzu berilgan bo'lib, mavzu uchun 6 akademik soat ajratilgan.

Bu mavzuning ahamiyati shundaki, undalma nutqning aniq kim yoki nimaga, ba'zan qayerga qaratilganini ifodalaydi, so'zlovchi tomonidan tinglovchi, ya'ni 2-shaxsning (ba'zan 3-shaxsning ham) e'tiborini tortish uchun xizmat qiladi, nutqning jozibasini, ta'sir kuchini oshiradi. Biroq bu mavzu 4-sinfda ham chuqur o'rgatilmaydi.

Darslikda “Undalma” mavzusi bo'yicha bir nechta qoidalar berilgan:

1-qoida: Undalma fikrning, ya'ni murojaatning kimga qarata aytilganini bildiradi.

2-qoida: Undalma ot bilan ifodalanadi.

3-qoida: Og'zaki nutqda undalma undash ohangi bilan aytiladi.

4-qoida: YOzuвda vergul yoki undov belgisi bilan ajratiladi.¹

¹ Ikromova R., Gulomova X., Yo'ldosheva Sh., Shodmonqulova D. Ona tili. 4-sinf uchun darslik. T., “O'qituvchi”, 2009. 30-bet

1. O'quvchilarning nutqiy malakalarini mukammallashtirish

O'quvchilar nutqini o'stirish o'zining metodik vositalariga ega bo'lib, bir qator mashq turlari mavjuddir. Bularndan eng muhimi bog'lanishli nutq mashqlari hisoblanadi. Nutq o'stirishda izchillik to'rt shartni, ya'ni mashqlarning izchilligini, istiqboli, xilma-xilligi, xilma-xil mashq turlarini umumiy maqsadga bo'ysundirish ko'nikmasini amalga oshirish bilan ta'minlanadi. Har bir yangi mashq oldingisi bilan bog'lanadi va keyingisi o'quvchilarni tayyorlaydi, umumiy maqsadga bo'ysungan holda qandaydir yangilik qo'shadi. Nutqiy malaka boshlang'ich sinflarda, birinchi va ikkinchi sinflarda shakllantiriladi, uchinchi va to'rtinchi sinflarda mukammallashtirib boriladi. Chunki nutq kichik yoshda qanday o'zlashtirilgan bo'lsa, katta yoshga chiqqanida ham inson nutqi shunday saqlanadi.

2. O'quvchilarda ishoraviy belgilarni o'z o'rnida qo'llash ko'nikmasini o'stirish.

Ma'lumki, ishoraviy belgilar ham imlo qoidasi hisoblanadi. Eng murakkab qoidalar imloviy qoidalardir. Bu qoidalar to'g'risidagi bilimlarning ko'nikmaga aylanishi uchun o'quvchilarni to'g'ri yozishga o'rgatuvchi imloviy mashqlardan keng ko'lamda foydalanish maqsadga muvofiqdir. Undalma ustida ishlashda ham o'quvchilarning punktuatsion bilimlarini kengaytirish ishiga alohida ahamiyat berish zarur hisoblanadi. Chunki aynan bu mavzu ustida ishlash jarayonida undalmaning gapdagi o'rni vergul bilan belgilanadi.

3. O'quvchilarning fikrlash darajasini o'stirish.

Yuqoridagi vazifalar undalmani o'quvchilarga o'rgatishdagi vazifalardir.

Gapdagi boshqa bo'laklar bilan sintaktik aloqaga kirishmaydigan, undash, chaqirish uchun ishlatiladigan, so'zlovchining nutqi qaratilgan shaxs yoki narsa ma'nosidagi so'zlar undalmalardir.

Undalmali gaplarda undalma gapning oxirida kelsa, undalmadan oldin, gapning boshida kelsa, undalmadan keyin, o'z navbatida, gap o'rtasida kelsa, oldin

va keyin yozuvda vergul qo'yiladi. Shu malakalarni o'quvchilarda shakllantirish asosiy vazifalardan sanaladi.

Undalma ustida ishlash tamoyillari quyidagilardan iboratdir:

- “Undalma” tushunchasining ongli ravishda o'zlashtirilishini ta'minlash.
- Mashqlarni tashkil qilishda undalmaning o'rni va rolini izohlay olishga o'rgatish.
- Undalmaniot so'z turkumiga oid so'zlarni undalma vazifasida kelishini mashqlarda ifodalash.
- Ishoraviy belgilarning vazifalarini uqtirib borish va ular yuzasidan o'quvchilarda ko'nikma hosil qilish.

Undalma ustida ishlash mashqlari tizimi:

1. Matndagi undalmalarni belgilash.

Bunday mustahkamlovchi mashqlarni ishlash uchun darslikdagi yo'nalishdan chiqmagan holda ish bajaramiz.

66-mashq. Ajratilgan so'zlarni tushirib, gaplarni o'qing. Ularning mazmunidagi farqni ayting.

Bolajon, sen doim suyuksan.

Bilib qo'y: iqboli buyuksan.

Abdulla Oripov

Bolam, bobong yaratgan bog'lar, bobong ekkan tut daraxti hozir ham yashnab turibdi.

Bobojon, laylaklar qishlog'imizga yana qaytib kelisharmikan?

Berilgan gaplarda fikr kimlarga qaratilgan? Murojaatni bildirgan so'z qaysi turkumga kiradi?

Mustahkamlovchi mashqlarni ishlashga o'rgatishda eng muhim jarayon – o'qituvchining mashq shartini qulay tarzda tushuntirishidir. Yuqoridagi mashqning yarmi amalda (yozma), yarmi og'zaki savol-javob tarzida bajariladi. Og'zaki suhbat orqali o'quvchilar gaplardagi undalmalar kim? so'rog'iga javob bo'lib, ot so'z turkumi bilan ifodalanganini, agar undalmalar gapdan tushirib qoldirilsa,

murojaatning kimga qarashli ekanligi noaniq bo‘lib qolishini, gap mazmuni to‘liq ifodalanmayotganligini bilib oladilar.

67-mashq. Berilgan gaplarni o‘qing. Matn qanday gaplardan tuzilgan?

Bir kampirning shaharda o‘qiydigan o‘g‘li uyiga keldi.

SHunda onasi sevinib:

- O‘g‘lim, senga ajoyib ovqatlar tayyorladim. Semizgina g‘oz go‘shim bor. SHirin, yog‘li quymog‘im bor. YAna quyuc qaymog‘im bor. Ko‘ngling qaysi birini xohlasa, shuni oldin beraman, - dedi.

O‘g‘li onasiga:

- Onajon, men g‘oz go‘shini quymoqqa o‘rab, uni qaymoqqa botirib yeyishga odatlanganman, - debdi.

(Qayum Nosiriydan)

Undalma ishtirok etgan gaplarni topib ko‘chiring.

Undalma gapning qaysi o‘rnida kelgan?

Undalma gapning qaysi shaxsga qaratilganini bildiradi?

O‘quvchilar undalmalar (o‘g‘lim, onajon) gapning boshida kelayotganini, gapda undalmalardan keyin vergul qo‘yilishi kerakligini, undalmali gaplarda fikr 2-shaxsga qaratilayotganligini izohlaydilar.

68-mashq.

SHe’rni o‘qing. SHe’rda maqsadga ko‘ra qanday gaplar ishtirok etgan?

- Uyga kirgin, Baxtiyor,
Kech bo‘ldi-ku, jon bolam.
- Hozir, aya, men bilan
O‘ynayapti Hikmat ham.

Kuzatmasam bo‘lmaydi,

Qo‘rqar uyga borgani.

- Sen-chi, sen qo‘rqmaysanmi,
O‘zing yolg‘iz yurgani...

Bo'sh kelmaydi Baxtiyor,

Ayasiga aytadi:

- Nega qo'rqay, kelishda
- U kuzatib qaytadi.

Fayzi SHohismoil

Undalma ishtirok etgan gaplarni ko'chiring. Undalmalar gapning qaysi o'rnida kelgan?

- Berilgan gaplarda undalmalar gapning oxirida (*Uyga kirgin, Baxtiyor, Kech bo'ldi-ku, jon bolam*) hamda gapning o'rtasida kelganligi (*Hozir, aya, men bilan O'ynayapti Hikmat ham*) izohlanadi.

69-mashq.

Matnni o'qing.

- Zaynab opaning uylari shumi? – so'radi Tolibjon.
- SHu, keling, tog'a.
- Kim bilan gaplashyapsan, bolam?

Bu ovoz Tolibjonga tanish edi. Tolibjon yugurib borib, kampirning bo'ynidan quchdi.

- Kimsan, bolam? Hiding dimog'imga tanish. Tolibjonginamning hidiga o'xshayapti.

Kampirning ko'zi ojiz edi. Tolibjon o'pkasi to'lib, yig'lab yubordi. Kampir uning boshini silab dedi:

- Qayoqlarda yurgan eding, bolaginam?

(Said Ahmaddan)

Undalmali gaplarni ko'chiring.

Tinish belgilarining qo'yilishiga e'tibor bering.

Birinchi navbatda, mashq sharti yaxshilab tushuntiriladi. Undalmali gaplarni ko'chirib yozish va undalmalarning tagiga chizish uqtiriladi. O'quvchilar yozib bo'lganlaridan keyin ulardan navbat bilan o'qish so'raladi. O'quvchilar yozgan gaplar tahlil qilinadi.

Masalan:

- SHu, keling, tog'a.
- Kim bilan gaplashyapsan, bolam?
- Kimsan, bolam?
- Qayoqlarda yurgan eding, bolaginam?

70-mashq. SHe'riy parchalarni ifodali o'qing.
Navbahor ochildi gullar, sabza bo'ldi bog'lar,
Suhbat aylaylik, kelinglar, jo'ralar, o'rtoqlar.

(Muqimiy)

Lekin, yurtim, kezoymas g'anim
O'zbekiston atalgan bog'da.
Sen-ku, nomus va sha'nim manim,
O'zbekiston, Vatanim manim.

(Abdulla Oripov)

Istiqlol mash'ali, tinchlik posboni,
Haqsevar ona yurt, mangu bo'l obod.

(Abdulla Oripov)

Ko'chiring. Undalmalarni topib, tagiga chizing.
Ustiga so'z turkumini yozing.

Bu mashq ham yuqoridagi mashqqa o'xshaydi. Faqat bu mashqda undalmalar uyushib kelyapti. O'quvchilar "Undalma" mavzusidan oldin gapning uyushiq bo'laklari to'g'risida tushunchalarga ega bo'lganliklari uchun mashq matnida berilgan uyushiq undalmalarni topish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu mashqni avval og'zaki tarzda bajarish mumkin yoki butun sinf jamoasi bilan birgalikda doskada bajartirish ham mumkin.

Demak, mashq butun sinf o'quvchilari tomonidan bajariladi. Bitta to'g'ri variant tanlanadi. So'ng doskaga yoziladi, o'quvchilar esa bu gaplarni daftarlariga ko'chirib yozadilar.

Masalan: Navbahor ochildi gullar, sabza bo'ldi bog'lar,

Suhbat aylaylik, kelinglar, *jo'ralar (ot s.t.), o'rtoqlar (ot s.t.)*.

Undalmasiz gapni undalmali gapga aylantirish

Bunday tipdagi mashqlarni bajartirishda o'quvchilarga undalmasiz gap berish va uni gapning mazmuniga ko'ra undalmali gaplarga aylantirish sharti berilishi kerak. Buning uchun o'quvchilarga bir nechta undalmasiz gaplar va unga mosini qo'yish uchun so'zlar tavsiya qilinadi.

Masalan:

Sizlar bizning kelajagimizsizlar.

Men sizni yaxshi ko'raman.

Sizni o'qituvchi va murabbiylar bayrami bilan muborakbod etamiz.

Siz dam oling, men sizga choy damlab kelaman.

Ketmoningizni menga bering, ishni men davom ettiraman, siz tag'in charchab qolmang.

Qo'yish uchun so'zlar: *yoshlar, onajonim, aziz ustozlar, bobojon, buvijon*.

Bunday mashq turlari o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini oshiradi, mazmunli jumlar tuza olish ko'nikmasini o'stiradi. Yana bir tomondan, o'quvchilarning yozma nutqlarini ham shakllantirib boradi.

Ona tili o'qitish metodikasida o'quvchilarning savodini chiqarish, grammatik tushunchalarini shakllantirish, ularning nutqiy va imloviy savodxonligini oshirishda qo'llaniladigan usullar, mashqlar variantlari juda ko'p. Fonetik-grammatik, orfografik tushunchalarni mustahkamlash, nutqiy malakani mukammal shakllantirishda metodika fanidan belgilangan mashqlar qatorida ta'limiy o'yinlar muhim o'rin tutadi. Ta'limiy o'yinlarning boshqa mashq turlari (ko'chirib yozuv, tahlil, diktant, bayon, insho) dan farqi shuki, bunda, bir tomondan, o'quvchilarning zerikishi, charchog'iga barham berilsa, ikkinchi

tomondan, bolalarning fikrlash jarayoni tezlashadi, muayyan belgilangan malakalarning mufassal shakllanishi osonlashadi.

Undalmali gaplar mavzusini o'rgatish jarayonida didaktik vositalar, noan'anaviy usullar, yangicha pedagogik texnologiyalar, ko'rgazmalilik, ta'limiy o'yinlarning ahamiyati katta. Bu mavzuni o'rganish jarayonida ta'limiy o'yinlardan foydalanish juda ham yaxshi samara beradi. Chunki bu mavzuga doir o'yinlarning o'rgatilishi nafaqat undalmali gaplarni o'zlashtirishga, balki o'quvchilarning fikrlash doirasini, og'zaki nutqini o'stirishga ham xizmat qiladi, so'z boyligini, ya'ni lug'at boyligini oshiradi. O'quvchi ta'limiy o'yinlarda qatnashish davomida nisbatan tez fikrlay boshlaydi. O'yinda g'alabaga bo'lgan ishtiyoq bilim sifatini ta'minlashga xizmat qiladi.

Masalan: **“Xotira mashqi”** o'yini

O'yin tartibi: Doska oldiga to'rtta o'quvchi chiqariladi. Boshlovchi har bir o'quvchiga navbat bilan bittadan she'riy parcha aytadi. Bu she'riy parchadagi undalmani tushirib qo'yib aytadi. O'quvchilar juda oz fursat davomida tushirib qoldirilgan undalmani o'z o'rniga qo'yib aytishlari kerak bo'ladi. Kim undalmani topa olmasa, o'yindan chiqib ketadi. O'yin oxirida undalmani topa olgan o'quvchigina g'olib bo'ladi.

Eng oxirida qolgan o'quvchi g'olib sanaladi va o'qituvchi tomonidan rag'batlantiriladi.

Boshlovchi:

1 – o'quvchiga

Mehr nuri yog'ar doim yuzingizdan,

2 – o'quvchiga

O, ... , jonajon o'lkam,

O'zbekiston, jonim to'shay soyangga.

3 – o'quvchiga

YAshna, yuksal, ... ,

Sensan baxtim, bahorim.

4 – o'quvchiga

Hilpira, ... , hilpira magʻrur,
Ozod, hur xalqimga baxsh etib surur.

“Kim chaqqon?” oʻyini

Oʻqituvchi sinf oʻquvchilarini 2 yoki 3 guruhga boʻladi. Har bir guruhga bittadan sodda gap aytadi va 1, 2, 3 deb sanaydi. Shu qisqagina vaqt ichida guruh sodda gapni undalmali gapga aylantirib aytishi lozim. Agar ulgurishmasa, oʻz-oʻzidan keyingi guruh aʼzolarining javoblari tinglanadi. Javoblar ball bilan belgilanib, doskaga yozib boriladi. Oʻyin oxirida ballar hisobi boʻyicha gʻolib guruh aniqlanadi. Masalan:

Oʻqituvchi: Bobomning bogʻida oʻriklar pishdi.

1- guruh: Bobojon, bogʻingizda oʻriklar pishdimi?

Oʻqituvchi: Ustalar devorimizni suvab berdilar.

2 - guruh: Ustalar, devorimizni suvab beringlar.

Oʻqituvchi: Bolalar toʻyga kelishdi.

3 - guruh: Bolalar, toʻyga kelinglar.

“Kim topqir?” oʻyini

Oʻyin tartibi.

Oʻqituvchi oʻquvchilarga undalma qatnashgan sheʼriy parchalardan kim koʻp yoza oladi degan shartni qoʻyadi va muhlatni belgilab qoʻyadi. Oʻqituvchi aytgan muhlatda koʻp sheʼr misrasini yoza olgan oʻquvchilar gʻolib sanaladi va ragʻbalantiriladi.

Bu taʼlimiy oʻyinning boshqa oʻyinlardan farqi shundaki, oʻyin oʻquvchilarni topqirlik, hozirjavoblikka undash bilan birga, ularning badiiy adabiyotga, sheʼriyatga boʻlgan qiziqishini oʻstiradi.

Oʻyin shu tariqa davom etadi. Oʻyinda yaxshi ishtirok etganlar ragʻbatlantiriladi.

Xullas, taʼlimiy oʻyinlar orqali oʻquvchilarning mavzu yuzasidan olgan nazariy bilimlari yanada muctahkamlanadi.

Mavzuni mustahkamlash mashqlari quyidagicha boʻladi.:

1) analitik mashqlar: a) belgilash mashqlari; b) guruhlash mashqlari

2) sintetik mashqlar: a) oʻrniga qoʻyish mashqlari; b) ijodiy mashqlar.

Biz yuqorida belgilash va oʻrniga qoʻyish mashqlariga misollar koʻrib chiqdik. Ijodiy mashqlar ham mavzuni mustahkamlashda muhim rol oʻynaydi.

Undalma mavzusi ustida ishlashda tarqatma varaqalar ham muhim oʻrin egallaydi. Bu vositalardan darsning mustahkamlovchi qismida foydalanish maqsadga muvofiqdir. Chunki bu qismda bola mavzu borasida maʼlum darajada bilimga ega boʻladi. Shunig uchun unga varaqadagi topshiriqlar qiyin boʻlmaydi.

Tarqatma varaqalarda mavzu toʻgʻrisidagi savollar, undalmali gaplar yoki chizmalar boʻlishi mumkin. Masalan:

Undalma nutqning kimga qarata aytilganini bildiradi?

Undalma qaysi soʻz turkumi bilan ifodalanadi?

Ogʻzaki nutqda undalma qanday ohang bilan aytiladi?

YOzuvda undalma qanday tinish belgisi bilan ajratiladi?

Gapning mazmuniga mos undalma topib qoʻying. Sening quchogʻingda
tugʻildim, oʻsdim.

Yuqoridagi 5 ta topshiriqqa o‘xshash savollar yoki vazifalar varaqalarga bitta yoki ikkitadan qilib yoziladi. Bu varaqalar o‘quvchilarga tarqatib chiqiladi va ularning tayyorlanishlari uchun 1 – 2 daqiqa vaqt beriladi. Birinchi bo‘lib ixtiyoriy ravishda tayyor bo‘lgan o‘quvchilardan so‘raladi. Agar o‘quvchi yaxshi javob bera olmasa yoki umuman javob bera olmasa, boshqa bir o‘quvchidan so‘rash mumkin.

“Undalma” mavzusini mustahkamlash jarayonida ijodiy mashqlardan foydalanish yo‘llari quyidagilardan iboratdir:

- Grammatik ijodiy mashqlardan foydalanish;
- Rasmlar asosida ijodiy mashqlar o‘tkazish;
- Ekskursiyalar asosida ijodiy mashqlar o‘tkazish.

Bu mashqlarni bajarishda o‘qituvchi topshiriqni beradi va o‘quvchilarga o‘zgina yordam yo‘nalishini beradi. Undalmali gaplarni kundalik hayotimizda o‘tanimiz, yaqinlarimiz, do‘stlarimizdan juda ko‘p eshitamiz. Mana shu eshitgan gaplarimizdan foydalanib, to‘g‘ri jumla tuzishga harakat qilamiz. Kim to‘g‘ri jumla tuzib, undalmali gaplarga ko‘p misollar topa olsa, o‘sha o‘quvchi g‘olib sanaladi, deb topshiriq beradi. O‘qituvchi o‘quvchilarning sinf daftarlarini yig‘ib olib, har bir o‘quvchining ishini sinchkovlik bilan tekshirishi lozim. Yo‘l qo‘yilgan xatolar daftarlarda aniq qilib ko‘rsatilishi kerak. Umuman, topshiriqni bajara olmagan yoki bajarishga harakat qilgan-u, barchasida xatolarga yo‘l qo‘ygan o‘quvchilar bo‘lsa, ular bilan alohida shug‘ullanishni tashkil etish zarur. Bunda nafaqat “Undalma” mavzusi, balki “Gap bo‘laklari”, “Bosh bo‘laklar”, “Ikkinchi darajali bo‘laklar” mavzularini ham birgalikda qo‘shib takrorlash zarur. Shunda bu mavzularning asl mazmuni, bir-biridan farqlari, bir-birini to‘ldiruvchi qismlari haqida o‘quvchilarda muayyan bilimlar, tushunchalar shakllanishi oson kechadi. Bu guruhdagi o‘quvchilarning bilim ko‘rsatkichlarini sinfning o‘rtacha ko‘rsatkichiga yetkazib olgach, ijodiy mashqlarning navbatdagi bosqichiga o‘tiladi.

5-§. Boshlang'ich sinflarda “Undalma” mavzusi ustida ishlashda interfaol usullardan foydalanish

Ona tili boshqa fanlarni o'qitish vositasi hamdir: jamiyat tarixi ham, tabiiy fanlar ham ona tili yordamida o'rganiladi. Demak, ona tili shaxsning umumiy kamol topishida ham, bilim va mehnatga havasini uyg'otishda ham alohida o'rin tutadi.

Til, ya'ni ona tili, muhim tarbiya vositasidir. “Ma'lumki, o'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy-ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir”¹. – deb ta'kidlagan edi Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov.

Darhaqiqat, ona tili ta'limi insonlarning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirishga, ularda erkin fikrlay olish, o'zgalar fikrini anglash, o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olishga, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu o'rinda ona tili ta'limiga o'quv fani sifatida emas, balki butun ta'lim tizimini uyushtiruvchi ta'lim jarayoni sifatida qarash lozimligini alohida ta'kidlash joizdir. Ta'lim jarayoni davlat qonunini hayotga tadbiq etishda muhim bosqich hisoblanadi va unda ona tili o'qitish asosiy o'rin egallaydi. Ayniqsa, ta'limning quyi bosqichi hisoblangan boshlang'ich ta'limda ona tili ta'limiga muhim o'quv fani sifatida yondashiladi.

Ona tili o'qitish metodikasi fanining mazmuni ona tili ta'limining izchil tizimini ishlab chiqish, ona tili darslarini tashkil etishga oid metodik tavsiyalarni tanlash va amaliyotga joriy etishgina emas, balki **metodika sohasining** zamonaviy pedagogik texnologiyalar, til o'rganishning interfaol metodlarini o'zida aks ettirgan **ilmiy asoslarini** ishlab chiqshidir.²

¹ I.A.Karimov. YUksak ma'naviyat – engilmas kuch. T., “Ma'naviyat”, 2008, 83-bet.

² To'xliiev B., Shamsieva M., Ziyodova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi. O'zbek tili o'qitish metodikasi kursidan bakalavriyat yo'nalishi talabalari uchun darslik. Toshkent, 2009.

Ona tili o'qitish metodikasi fani ta'limning turli bosqchlarida tilning nazariy va amaliy tomonlarini o'rganishning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Ona tili o'qitish metodikasining asosiy maqsadi til imkoniyatlaridan to'g'ri, aniq, o'rinli va unumli foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish; mantiqiy – ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish; milliy istiqlol g'oyasini, sharqona tarbiyani shakllantirish; o'quvchi-talaba shaxsini ma'naviy (balog'at va fasohat ilmi bilan) boyitishdan iborat ¹.

Ona tili o'qitishda interfaol usullardan foydalanish alohida ahamiyatga ega. Chunki interfaol pedagogik texnologiyada o'qitish o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorligi asosida tashkil etiladi. Bunday darsda o'qituvchilar o'zini faqat bilim beruvchi emas, balki o'quvchilarning faol o'rganish jarayonini pedagogik va psixologik jihatdan tashkil etuvchi hamkor hisoblanadi, ya'ni o'qitish, asosan, o'rganuvchilarning faolligiga asoslanadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyaning muhim xususiyati bilimlarni o'zlashtirishdangina iborat bo'lmagan, balki muloqot materiali sifatida axborotlardan foydalanishni ham o'z ichiga oladi. O'qitib o'rgatadigan an'anaviy pedagogika o'z samarasini bermay qo'yganligini o'qituvchilarimiz tushunib etmoqda. Sababi, XXI asr – tayyor materialni, bilimni o'qib-o'rganish emas, izlashga, qidirishga o'rgatish, ziddiyatli fikrlar hosil qilib, undan to'g'risini topish, o'quvchilardan ko'p takliflar olish va uni qo'llab-quvvatlab obrazli fikrlashga o'rgatadigan asr. Buning uchun esa o'qituvchilar ijodkor, izlanuvchan bo'lishlari darkor.

Noan'anaviy usullar o'qitishning zamonaviy texnologiyalari tarkibiga kirib, u ta'lim tizimini isloh qilishning asosiy maqsadi sifatida o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga mo'ljallangandir.

Noan'anaviy dars va usullarning qo'llanishi ko'r-ko'rona, shaklbozlik uchun bo'lmazligi kerak, uning isbotlanmagan tarzda olib borilishi samarasizgina emas, balki zararli hamdir. Negaki, noan'anaviylik tasdiqlangan, rejalashtirilgan

¹ www. Ziyonet materiallaridan

an'anaviylikdan tubdan farq qilar ekan, uning samarasini o'qituvchi avvaldan ko'z oldiga keltirishi, shunga ko'ra uni tashkil qilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Noan'anaviy ta'limga keng yo'l ochilishi «an'anaviy dars usullarining bir qolipga tushib qolgan, bolani zeriktiradigan, almisoqdan qolgan usullardan foydalanishning samarasizligi, o'quvchilarga faqat qoidani yodlatish, lekin uni amalda qo'llashdan ojizlikning hosil bo'lgani, o'quvchilarning og'zaki, yozma nutqining talab darajasidan nihoyatda pasayib ketganligi va shularning natijasida ularda fikrlash, tafakkur, mantiqiy fikrning passivlashgani natijasi deb bilish mumkin. Ko'pgina maktablarda nutq o'stirish o'rniga hali ham grammatika o'rgatish davom etyapti»¹.

Noan'anaviy ta'limdan ko'zda tutilgan maqsad o'quvchilarga faqat bilim, ko'nikma, malaka berishdan iborat bo'lmasdan, ularni tabiiy sharoitga yaqinlashtirishdan iboratdir. YA'ni darsda vujudga keladigan muammoli vaziyatlarni o'zlarida mavjud bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar orqali hal qilishga, o'quvchilarni mustaqil va obrazli fikrlashga o'rgatishdan iboratdir. SHundagina o'quvchi darsda faol ishtirok etuvchi shaxsga aylanishi, erkin fikrlay olishi va o'z fikrini dadil aytishi hamda uni himoya qila olishi, tashabbuskor, mustaqil bo'la olishi mumkin. Bu xususiyatlarning shakllanishi o'quvchining ruhiy holatiga ham ta'sir etadi va noan'anaviy ta'lim natijasida ularda o'ziga xos psixologik xarakter shakllana boradi: har qanday holatda o'z fikrini aytish, o'zgalar fikrini muhokama qilish, xulosalash, qiyoslash, inkor qilish kabi xususiyatlar tarkib topa boradi.

Noan'anaviy ta'limni interfaol, ijodiy, muammoli, bahs-munozarali, savol-javob usullarida olib borishda bilim oluvchi etakchi sanaladi. Umuman olganda, noan'anaviy ta'limda o'quvchi darsda faol ishtirok etadi va bilim oluvchi o'z bilimini namoyish etuvchi bo'lishi mumkin.

Mustaqillikdan so'ng **«noan'anaviy dars»**, **«noan'anaviy usul»**, **«interfaol usullar»**, **«trening darslari»**, **«sinkveyn»**, **«Klaster»**, **«zanjir»**... kabi atamalarga

¹ Mahmudov N. Ona tili o'qitishning dolzarb muammolari // Til va adabiyot ta'limi. – 1993. –B. 3-4.

oid ona tili o'qitish xususidagi ilmiy tadqiqotlar, risolalar, maqolalar, axborot-tezislarni berilmoqdaki, bu ishlarning barchasida darsning ma'lum tipida yoki bosqichlarida dars samaradorligini oshiruvchi, ya'ni ona tili ta'limidagi an'anaga kirgan usullardan farqli bo'lgan usul va yo'l ko'rsatilmoqda.

Dars ta'lim berish maqsadiga yo'naltirilgan o'qitish jarayoni bo'lib, u ta'lim olib borish maqsadiga ko'ra ma'lum talablarga javob berishi kerak bo'ladi. Bu talablar dars qurilishiga, dars tiplariga, bosqichlariga taalluqli bo'lib, ta'limning an'anaviy shakliga tegishlidir. (Uy vazifasini so'rash, yangi bilim berish, mustahkamlash, uyga vazifa berish, takrorlash darslari, yozma ish o'tkazish va h.k.). SHuni ham unutmaslik kerakki, «doimo bir xil shakl va metodlarda dars o'ta berish o'quvchilarning darsga qiziqishini susaytirishi, ruhiy toliqtirish natijasida shu o'qituvchining darslariga loqayd munosabat paydo bo'lishi mumkin»¹.

Ta'lim samaradorligini ta'minlovchi omillardan biri tahsil oluvchilarni ta'lim olishga qiziqtirishdir. Ana shulardan biri darsni noan'anaviy usulda tashkil qilishdir, chunki noan'anaviy dars o'qituvchi va o'quvchi orasidagi psixologik aloqani tez hamda sifatli shakllantiradi. O'qituvchi o'quvchilarni befarqlik balosidan xalos etadi. Bunday darslarni har qanday mavzuni o'tishda qo'llash mumkin.

Noan'anaviy darsni tashkil etish va o'tish an'anaviy usullardan farqlanuvchi holat bo'lib, u noan'anaviy dars, noan'anaviy metod, noan'anaviy usul, noan'anaviy yo'llarni o'z ichiga oladi. Umuman olganda, o'qituvchining ta'limga ijodiy, samarador yondashishini hamda mashg'ulotlarni o'zgacha olib borishini ta'limni noan'anaviy tarzda olib borish desa bo'ladi; bu innovatsion texnologiya deb ham yuritilmoqda.

Ta'limni noan'anaviy dars shaklida olib borishning samaradorligi shundaki, birinchidan, o'quvchilarga ona tilidan DTS asosida ilmiy bilim beriladi, ikkinchidan, ona tilidan ko'zlangan maqsad amalga oshiriladi, uchinchidan, faqat nazariy ma'lumotlarga berilmasdan, o'quvchilarning uni amaliyotda, hayotiy-tabiiy holda qo'llash orqali darsga bo'lgan intilishi kuchayadi, darsga qiziqish bilan qatnashishlari ta'minlanadi.

¹ Qodirov V. Noan'anaviy darslar// Ilmiy-uslubiy maqolalar to'plami. 5-chiqish. Andijon, 1996. B. 3.

Umuman olganda, darsni tashkil qilishda o'qituvchilardagi ijodiylik, topqirlik, noan'anaviy shakllarni izlash, sinash, ommalashtirish o'tgan asrning 90-yillardan keyin keng tus oldi. 1996-yilda respublika pedagogik o'qishlari uchun tavsiya etilgan ma'ruzalarning teng yarmi noan'anaviy ta'limga bag'ishlangan bo'lsa, «O'zbek tili o'qitishning ilmiy-metodik doimiy anjumani»da berilgan maqolalarning ham aksariyati shu muammolarga bag'ishlangani barcha o'qituvchilarimizning bu masalaga jiddiy yondashayotganidan dalolatdir.

Agar noan'anaviy dars ma'lum dars jarayonini mutloq ravishda an'anaviy bosqichlardan farqli uyushtirish bo'lsa, noan'anaviy metod xususiy didaktik metodlar nuqtai nazaridan ta'limni tashkil qilish va uni o'tkazish jarayoni sanaladi.

Darsni tashkil qilish texnologiyasi bilan metodi bir-biridan farq qiladi, chunki texnologiyada ta'lim shakllarining samaradorligi, shaxs resurslari hisobga olinadi. O'qituvchining ishbilarmonligi va mahorati texnologiyada ham, metodikada ham aks etadi. Texnologiya metodikadan farqli o'laroq tizimli metod hisoblanadi. Texnologiya metodika, didaktika nazariyasini inkor etmaydi, ammo ularning o'rnini ham bosmaydi.

Didaktik va metodik adabiyotlarda faollik darajasi, asosan, uch bosqichdan: qayta xotirlash (reproduktiv), qisman ijodiylik (interpretatsion) va ijodiy faollikdan iborat deyiladi,

Ma'lumki, an'anaviy metodda o'qituvchi axborotni tushuntiradi, tizimli yondashuvda esa mantiqiylik, aniqlik mavjud bo'ladi. O'quvchining tashabbuskorligi, mustaqil fikrga egaligi tadqiqiy-ijodiy yondashuvda amalga oshadi.

Ilmiy jihatdan asoslangan metodlarni qo'llash ta'lim samaradorligiga xizmat qiladi.

O'ziga xos fikr yaratish yoki muhim ilmiy ahamiyatga molik bo'lgan, kashf qilish bilan belgilanadigan tafakkur produktiv darajadagi tafakkur deyiladi. Insonning tayyor mulohazalarni o'zlashtirib olishga qaratilgan tafakkuri reproduktiv tafakkur hisoblanadi.

Ona tili darslarida **“Sinkveyn”**, **“Venn diagrammasi”**, **“Aqliy hujum”**, **“Tushunchalar ta’rifi”**, **“Klaster”**, **“5 minutlik esse”**, **Bumerang”**, **“T-jadval”**, **“Blits-so‘rov”** kabi interfaol usullardan foydalanish mumkin. Lekin bu usullardan ayrimlarinigina boshlang‘ich sinflarga tatbiq etish mumkin.

Ma’lumki, zamonaviy ta’limni to’g’ri tashkil etishga qo’yiladigan muhim talablardan biri – o’qituvchining ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishidir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o’quvchilarga yetkazib berish, ularda ma’lum faoliyat yuzasidan ko’nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o’quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko’nikma hamda malakalar darajasini baholash o’qituvchidan yuksak pedagogik mahoratni, ta’lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda o’quvchilarning o’quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi, ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo’llash borasida katta tajriba to’plangan bo’lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda.

Interfaol ta’lim – ta’lim jarayoni ishtirokchilarining BKM (bilim, ko’nikma, malakalari) hamda muayyan axloqiy sifatlarini o’zlashtirish yo’lida birgalikda, o’zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etishga asoslanuvchi ta’lim

Mantiqiylik nuqtai nazaridan, interfaollik, eng avvalo, ijtimoiy sub’ektlarning suhbat (dialog), o’zaro hamkorlikka asoslangan harakat, faoliyat olib borishlarini ifodalaydi. Bu turdagi ta’lim o’quvchilarning o’zaro suhbatiga asoslanadi. Ta’lim jarayonida suhbat quyidagi shaxslar o’rtasida tashkil etiladi:

O’qituvchi ta’lim jarayonida interfaol ta’lim yordamida o’quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqillik, o’z-o’zini nazorat, o’z-o’zini boshqarish, samarali suhbat olib borish, tengdoshlari bilan ishlash, ularning fikrlarini tinglash va tushunish, mustaqil hamda tanqidiy fikrlash, muqobil takliflarni ilgari surish, fikr-mulohazalarini erkin bayon qilish, o’z nuqtai nazarlarini himoya qilish,

muammoning yechimini topishga intilish, murakkab vaziyatlardan chiqa olish kabi sifatlarni shakllantirishga muvaffaq bo'ladi. Eng muhimi, interfaol metodlarni qo'llash orqali o'qituvchi o'quvchilarning aniq ta'limiy maqsadga erishish yo'lida o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatlarini tashkil etish, yo'naltirish, boshqarish, nazorat va tahlil qilish orqali xolis baholash imkoniyatini qo'lga kiritadi.

1. “Sinkveyn” strategiyasi. J.Still, K.Meredis, CH.Temil tomonidan ishlab chiqilgan “O'qish va yozish asosida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish dasturi”da har bir o'quvchi (o'quvchi) va o'quvchi (o'quvchi)lar guruhlarining fikrlash faolligini oshirish, ularda tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun “Sinkveyn” strategiyasini qo'llash samarali ekanligi aytiladi.

Bu o'rinda strategiyaning mohiyati bilan tanishib o'tish maqsadga muvofiqdir.

Sinkveyn (fr.a “besh qator”) ma'lumotlarni sintezlash (alohida ma'lumotlar asosida yaxlit g'oyalarni shakllantirish)ga yordam beradigan qofiyasiz she'r bo'lib, u asosida o'rganilayotgan mavzu (tushuncha, hodisa, voqea)larga oid ma'lumotlar t o'planadi; har bir o'quvchi ushbu ma'lumotlar yig o'indisi (qofiyasiz she'r)ni o'z s o'zlari bilan turli variant yoki nuqtai nazarlar orqali ifodalash imkoniyatiga ega

Sinkveyn tuzish – murakkab g'oya, sezgi va hissiyotlarni bir necha so'z orqali yaqqol, yorqin ifodalash malakasi bo'lib, bu jarayon mavzuni puxtarok o'zlashtirish, ma'lumotlarni yaxshiroq anglashga yordam beradi

Sinkveyn tuzish murakkab jarayon bo'lib, uni samarali tashkil etish uchun muayyan qoidalarga amal qilish talab etiladi. Odatda, sinkveyn tuzish besh bosqichli harakatlarni tashkil etish orqali amalga oshiriladi.

2. “Blits-so'rov” (ing. “blits” – tezkor, bir zumda) metodi berilgan savollarga qisqa, aniq va lo'nda javob qaytarilishini taqozo etadigan metod sanaladi. Unga ko'ra, o'qituvchi o'rganilgan mavzu, muayyan tarkibiy qismlar mohiyatining ochib berilishini talab etadigan savollarni ishlab chiqadi va o'quvchilarning

e'tiborlariga havola etadi. O'quvchilar berilgan savolga qisqa muddatda lo'nda va aniq javob qaytara olishlari lozim. Guruh yoki juftlikda ishlashda bir nafar o'quvchi berilgan savolga javob qaytaradi, uning sheriklari yoki guruhdoshlari javobni to'ldirishlari mumkin. Biroq fikrlar takrorlanmasligi lozim. Metodni qo'llashda mavzuga doir tayanch tushunchalar, asosiy g'oyalarning mohiyati o'quvchilar tomonidan og'zaki, yozma yoki tasvir (jadval, diagramma) tarzida yoritilishi mumkin.

“Zinama- zina” texnologiyasi

Texnologiyaning tavsifi. Ushbu mashg'ulot o'quvchilarni o'tilgan yoki o'tilishi kerak bo'lgan mavzu bo'yicha yakka va kichik jamoa bo'lib fikrlash hamda xotirlash, o'zlashtirilgan bilimlarni yodga tushirib, to'plangan fikrlarni umumlashtira olish va ularni yozma, rasm, chizma ko'rinishida ifodalay olishga o'rgatadi. Bu texnologiya o'quvchilar bilan bir guruh ichida yakka holda yoki guruhlariga ajratilgan holda yozma ravishda o'tkaziladi va tadqiqot qilinadi. Texnologiyaning maqsadi. O'quvchilarni erkin, mustaqil va mantiqiy fikrlashga, jamoa bo'lib izlashga, izlanishga, fikrlarni jamlab ulardan nazariy va amaliy tushuncha hosil qilishga o'z fikri bilan ta'sir eta olishga, uni ma'qullashga, shuningdek , mavzuning tayanch tushunchalariga izoh berishda egallangan bilimlarini qo'llay olishga o'rgatish.

Texnologiyaning qo'llashi: kichik guruhlarda o'tkazish hamda nazorat darslarida qo'llanilishi mumkin.

Mashg'ulotda qo'llaniladigan vositalar: A-3, A-4 formatli qog'ozlarda tayyorlangan (mavzuni ajratilgan kichik mavzular soniga mos) chap tamoniga kichik mavzular yozilgan tarqatma materiallar, flomaster (yoki rangli qalam)lar.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi: o'qituvchi o'quvchilarni mavzular soniga qarab 3-5 kishidan iborat kichik guruhlariga ajratadi (guruhlar soni 4 yoki 5 ta bo'lgani ma'qul); o'quvchilar mashg'ulotning maqsadi va uning o'tkazilish tartibi bilan tanishtiriladi. Har bir guruhga qog'ozning chap qismida kichik mavzu yozuvi bo'lgan varaqalar tarqatiladi; o'qituvchi guruh a'zolarini tarqatma materialda

yozilgan kichik mavzular bilan tanishishlarini va shu mavzu asosida bilimlarini flomaster yordamida qog'ozdagi bo'sh joyiga jamoa bilan birgalikda fikrlashib yozib chiqish vazifasini beradi va vaqt belgilaydi; guruh a'zolari birgalikda tarqatma materialda berilgan kichik mavzuni yozma (yoki rasm, yoki chizma) ko'chirishda ifodali etadilar. Bunda guruh a'zolari kichik mavzu bo'yicha imkon boricha to'laroq ma'lumot berishlari kerak bo'ladi. Tarqatma materiallar to'ldirilgach, guruh a'zolaridan bir kishi taqdimot qiladi. Taqdimot vaqtida guruhlar tomonidan tayyorlangan material, albatta, sinf doskasiga mantiqan tagma-tag (zina shaklida) ilinadi; o'qituvchi guruhlar tomonidan tayyorlangan materiallarga izoh berib, ularni baholaydi va mashg'ulotni yakunlaydi.


Izoh: o'quv mashg'ulotining bunday tashkil etilishi o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, o'tilgan va o'zlashtirilgan mavzularni puxta egallashga, ularni yozma (yoki rasm, chizma ko'rinishida) bayon etishga, fikrlarni umumlashtirishga o'rgatadi.

VENN DIAGRAMMASI

Venn diagrammasi bir-birini kesadigan ikki yoki undan ko'p doiralarda quriladi, ular o'rtasida yozish uchun yetarli joy qolishi kerak. U g'oyalarni zidlash uchun ishlatilishi yoki ularning umumiy xususiyatlarini (nimada ular kesishadi) ko'rsatishi kerak. O'quvchilar ikki timsol, voqea-hodisa yoxud grammatik tushunchani taqqoslaydilar, ya'ni ularning o'zaro o'xshash xususiyatlari va farqli tomonlarini yoritib beradilar. Bu diagrammani Venn ijod qilgani uchun uning nomi bilan atalgan.

Masalan, o'quvchilar uyushiq bo'lak bilan undalma yoki ega bilan undalmani taqqoslaydilar, deylik. Venn diagrammasi bir-biriga yopishgan ikki doira bilan birga ushbu tushunchalar o'rtasida zidlik o'tkazish, ayni vaqtda, ularning umumiy jihatlarini ko'rsatish imkonini beradi.

O‘qituvchi o‘quvchilar juftligidan **Venn diagrammasi** tuzib, unda faqat ega va undalmaga taalluqli bo‘lgan doiralarning ikki qisminigina to‘ldirishni so‘rashi mumkin. So‘ngra juft boshqa juftga qo‘shiladi va to‘rt kishi o‘z diagrammalarini taqqoslashlari, so‘ngra o‘rtasida, ular ko‘rganidek, ikkala grammatik (sintaktik) tushuncha uchun umumiy bo‘lgan xususiyatlar ro‘yxatini tuzishlari mumkin.



“ZANJIR” usuli

Bu usul orqali o‘quvchilarning hozirjavoblighi shakllantiriladi. Bunda o‘quvchidan o‘z bilimini tezkorlik bilan namoyon etish talab qilinadi. SHuni ta’kidlash o‘rinliki, eng yaxshi javoblar vaqt tig‘iz bo‘lganda tug‘iladi. Darsning “**CHaqiriq**” (an’anaviy dars shakllaridan “uy vazifasini so‘rash”) bosqichida bu usulni qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Masalan, “Undalma” mavzusi bo‘yicha o‘qituvchi birorta misol (undalma so‘zlovchining nutqi qaratilgan shaxs ma’nosini bildiradi. Masalan: Vaxtiyor, menga kitobingni berib tur) keltiradi. O‘quvchilar fikrning zanjirini davom ettiradilar.

1-o‘quvchi: Undalma so‘zlovchining nutqi qaratilgan narsa-predmet ma’nosini bildiradi. Masalan: Kitob, mening do‘stimsan.

2-o‘quvchi: Undalma so‘zlovchining nutqi qaratilgan joy ma’nosini bildiradi. Masalan: O‘zbekistonim, sen uchun har qanday xizmatga tayyorman.

3-o‘quvchi: Undalma undash, chaqirish ma’nosini bildiradi. Masalan: O‘rtoqjon, sen mening chin do‘stimsan.

4-o‘quvchi: Undalma gapning boshida keladi. Masalan: Kitob, mening do‘stimsan.

5-o‘quvchi: Undalma gapning oxirida keladi. Masalan: Mening do‘stimsan, kitob.

6-o‘quvchi: Undalma gapning o‘rtasida keladi. Masalan: Bugun, do‘stim, sayohatga chiqamiz.

7-o‘quvchi: Undalmalar gapning boshqa bo‘laklaridan vergul bilan ajratiladi. Masalan: Kitob, mening do‘stimsan.

O‘quvchilar shu tarzda o‘z fikrlari hamda misollarini navbatma-navbat qisqa vaqtda aytadilar va zanjirni bog‘laydilar. SHartga amal qilmagan va atamalarni takror aytgan o‘quvchi zanjirni uzgan bo‘ladi va u jarima oladi. Jarima olgan o‘quvchi o‘yin so‘ngida o‘qituvchining qo‘shimcha savoliga javob beradi.

“**Zanjir**” usulini guruhlararo o‘tkazish ham samarali natija beradi. SHartlarning bajarilishiga qarab, guruhlariga ballar qo‘yib boriladi va g‘oliblar belgilanadi. Bu usul, ayniqsa, otlarning ma’noviy guruhlanishi bilan bog‘liq materiallarni o‘quvchilarga yetkazishda mos keladi.

Demak, interfaol ta’lim metodlari o‘qitish jarayonida o‘quvchilar va o‘qituvchi o‘rtasida hamkorlikni qaror toptirish, faollikni oshirish, o‘quvchilar tomonidan bilimlarni samarali o‘zlashtirish, ularda shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladigan metodlar sanaladi.

Interfaol ta’lim metodlari interfaol ta’lim asosini tashkil etadi. Ular o‘quvchilarda erkin fikrlash, shaxsiy qarashlarini ikkilanmay bayon etish,

muammoli vaziyatlarda yechimlarni birgalikda izlash, o'quv materiallarini o'zlashtirishda o'quvchilarning o'zaro yaqinliklarini yuzaga keltirish imkoniyatiga egaligi bilan xarakterlanadi.

X u l o s a

Ona tili jamiki bilimlarning kaliti, poydevoridir. O‘quvchilarni boshlang‘ich sinf partasida o‘tirgan chog‘idan boshlab ona tilimizning boy va go‘zal ifoda imkoniyatlari bilan tanishtirish, ularga grammatik qonun-qoidalarni puxta o‘zlashtirishlariga imkoniyat yaratish, buning uchun echsa ta’lim berishning yangicha, zamonaviy usullaridan foydalanish bugungi kunda xalq ta’limi oldidagi, o‘qituvchi-pedagoglar zimmasidagi eng mas’uliyatli vazifadir.

Men mazkur mavzu asosida yozgan bitiruv malakaviy ishimni tayyorlash va shakllantirish jarayonida quyidagi xulosalarga keldim:

◀ Boshlang‘ich sinf – o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishdagi asosiy bosqichdir.

◀ Boshlang‘ich sinflardan boshlab o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqlariga alohida e’tibor berish boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining asosiy vazifasidir.

◀ Boshlang‘ich sinflarda sintaktik tushunchalarga oid mavzular ustida ishlash orqali o‘quvchilarning og‘zaki nutqi o‘stiriladi, ularda to‘g‘ri jumla, to‘g‘ri gap tuza olish malakalari shakllantirib boriladi.

◀ Sintaktik tushunchalar bo‘yicha o‘quvchilarda 1-sinfdan boshlab ilk ma'lumotlar berib boriladi. Bu esa yuqorida bilib olishlari zarur bo‘lgan grammatik tushunchalarga asos bo‘lib xizmat qiladi.

◀ Boshlang‘ich sinflardan boshlab o‘quvchilarga gap bo‘laklari va ular bilan bog‘lanmaydigan bo‘laklar (undalma) to‘g‘risida grammatik tushunchalar berib boriladi.

◀ Boshlang‘ich sinflarning har birida sintaktik tushunchalarga oid mavzular berilgan bo‘lib, bu mavzular ma'lum izchillik asosida o‘rgatib boriladi.

◀ 1-sinfdan boshlab sintaktik tushunchalar “Og‘zaki va yozma nutq”, “Gap” mavzulari ustida ishlash jarayonida o‘quvchilarga o‘rgatib boriladi.

◀ 2-sinfdan sintaktik tushunchalarga oid mavzular: “Gap va so‘z”, “Gapda so‘zlarning bog‘lanishi” mavzulari ustida ishlanadi va o‘quvchilar gapda

soʻzlarning bogʻlanishi boʻyicha ham amaliy, ham nazariy maʼlumit va koʻnikmalarga ega boʻladilar.

◀ 3-sinf sintaktik tushunchalar ustida ishlashda asosiy bosqich hisoblanadi, bunda oʻquvchilar “Gapning ifoda maqsadiga koʻra turlari”, “Gap boʻlaklari”, “Gapning bosh va ikkinchi darajali bolaklari” (ikkinchi darajali bolaklarning nomlari aytilmaydi), “Gapda soʻzlarning bogʻlanishi” mavzulari yuzasidan maʼlumotlarga va amaliy koʻnikmalarga ega boʻladilar.

◀ “Undalma” mavzusi sintaktik tushunchalarga oid mavzu boʻlib, asosan, 4-sinfda oʻrganiladi.

◀ “Undalma” mavzulari yuzasidan oʻquvchilarda grammatik tushuncha hosil qilishda biz yuqorida, ishimizning oldingi sahifalarida, aytib oʻtgan usullar va vositalarning oʻrni katta boʻldi va buni tajribalarimiz davomida eʼtirof etdik.

◀ Boshlangʻich sinflardan boshlab oʻquvchilarning yozma nutqini oʻstirish ularning maʼlum bir mavzu yuzasidan grammatik tushunchalarining darajalarini aniqlash maqsadida yozma ishlar, ayniqsa, taʼlimiy diktantlar oʻtkazib turish maqsadga muvofiqdir. Chunki taʼlimiy diktantlar oʻquvchilarning ijodiy tafakkurini oʻstiradi, xotirasini mustahkamlaydi, zukkolik qobiliyatlarini shakllantiradi.

◀ “Undalma” mavzusini oʻtish va mustahkamlash jarayonida ijodiy mashqlar, taʼlimiy oʻyinlar, taʼlimiy diktantlar kabilar mavzuni mustahkamlashning optimal variantlari hisoblanib, ulardan foydalanish ishimizda yaxshi samara berdi.

◀ Undalma bilan bogʻliq mavzularni oʻrganish jarayonida yuqorida aytib oʻtilgan grammatik tushuncha hosil qilish usullari hamda ijodiy mashqlardan foydalanish oʻquvchining ijodiy tafakkurini oʻstiradi.

◀ Undalma ustida ishlashda, ayniqsa, ijodiy diktantlardan foydalanish oʻquvchidan tezkorlik bilan topish kerak boʻlgan boʻlakni yoki boʻlak boʻlib kelgan soʻzni toʻgʻri tanlay olishga, topishga oʻrgatadi.

Mavzu ustida ishlash, uni shakllantirish jarayonida metodik kamchiliklarga yoʻl qoʻyganligim tabiiy. Chunki hali men pedagogik tajribaga ega emasman. Lekin shuni aytamoqchimanki, bitiruv malakaviy ishimni tayyorlash jarayonida

boshlang'ich sinf o'qituvchisining o'quvchi hayotidagi darajasini, o'rnini, shu bilan birga, vazifalarini aniq bilib oldim. Bu esa meni kelajakda yaxshi o'qituvchi bo'lishga chorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Мирзиёев Ш. Жисмоний ва маънавий баркамол ёшлар – бугунги ва эртанги кунимизнинг ҳал қилувчи кучидир \ Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Т., “Ўзбекистон”, 2017.
2. Каримов И. Юксак маънавият – енгилмас куч. Т., “Маънавият”, 2008.
- *
3. Ғуломов А., Неъматов Ҳ. Она тили таълими мазмуни. Т., Ўқитувчи, 1995.
4. Искандарова Р. Она тили ўқитишда ижодкорлик дарслари//Таълим бўғинларида она тили ўқитиш мазмунини янгилаш асослари. Қарши, 1993.
5. Қодиров В. Ноанъанавий дарслар// Илмий-услубий мақолалар тўплами. 5-чиқиш. Андижон, 1996.
6. Маҳмудов Н. Она тили ўқитишнинг долзарб муаммолари // Тил ва адабиёт таълими. 1993.
7. Тўхлиев Б. Шамсиева М. Зиёдова Т. Ўзбек тили ўқитиш методикаси.Т., Янги аср авлоди, 2006.
8. Юсупова Ш. Она тили ўқитиш мазмуни. Т., Янги аср авлоди, 2003.
- *
9. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. М., “Рус тили” нашриёти, 1980.
- *
10. Fuzailov S., Xudoyberganova M. Ona tili. 3-sinf uchun darslik. Т., “O‘qituvchi”, 2011.
11. G‘afforova T. Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Т., 2011.
12. G‘afforova T., Shodmonov E., G‘ulomova X. Ona tili. 1-sinf uchun darslik. Т., “Sharq”, 2015.

13. Ikromova R., Gulomova X., Yo‘ldosheva SH., SHodmonqulova D. Ona tili. 4-sinf uchun darslik. T., “O‘qituvchi”, 2012.
14. Jalilova M. Ona tili darslarida o‘qitishning zamonaviy usullari. “Boshlang‘ich ta’lim” jurnali, 2009, 2-son.
15. Masharipova U. Oquvchi nutqini o‘stirishda innovatsion usullardan foydalanish. ”Boshlang‘ich ta’lim”jurnali, 2014 -yil, 1-son.
16. Qiyasova Q. Til darslarida o‘quv topshiriqlari tizimidan foydalanish. ”Til va adabiyot ta'limi” jurnali. T., 2003 -yil,5 -son.
17. Qosimova K. va b. Ona tili o‘qitish metodikasi. T., “Noshir”, 2009.
18. Qosimova K., Fuzailov S, Ne‘matova A. Ona tili. 2-sinf uchun darslik. T., Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012.
19. Yunusov Q. Ona tili darslarida ta’limiy o‘yinlar. Andijon. 2006.

*

20. O‘zbekiston Respublikasi Uzviylashtirilgan Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. Ona tili. (1 – 4-sinflar) T., “Yangiyo‘l polygraph service”, 2010.
21. O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari. T.,”O‘qituvchi”, 1995.

*

22. www.ZiyoNET